

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”


**O‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor
k.f.d. prof.Ziyodullaev O.E.**

«__»____2019y.

**DELPHI VA C++ PROGRAMMALAGH TILLARIDA
AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN
MASALALAR TO‘PLAMI**

```
constexpr size_t calc_size(/*args*/)
{
    // do something
    return result;
}

int main()
{
    std::array<int, calc_size()> array;
    // do something
    return 0;
}
```



Chirchiq –2019.

TUZUVCHILAR: Axmedjanov D.G. “IO‘M” kafedrası mudiri, t.f.n., dotsent.
Duysenov N.E. - “IO‘M” kafedrası katta o‘qıtuvchısı
Kuralov YU.A. - “IO‘M” kafedrası assistenti.

Ushbu masalalar to‘plami M.E.Abramyanning “Elektronnyy zadachnik po programmirovaniyu” elektron o‘quv qo‘llanması asosida yaratilgan bo‘lib programmalashni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan asosiy tushuncha va masalalarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmadan oliy o‘quv yurtlarining 5460100 – matematika, 5480100 - amaliy matematika va informatika, 5140100-matematika va informatika, 5521900 -informatika va informatsion texnologiyalar bakalavrlık yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarining foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Taqrizchilar: Radjabov B.SH. - texnika fanlari doktori, CHDPI
“Aniq fanlar” kafedrası professori.
Xodjimetoa A.I - fizika-matematika fanlari doktori,
I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universiteti Toshkent filiali professori



Programmalashdan masalalar to‘plami Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “IO‘M” kafedrasida 2019 yil ____dagi № ____-sonli majlis qarori bilan ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi.

Programmalashdan masalalar to‘plami Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy uslubiy kengashining 2019 yil ____dagi № ____-sonli kengash qarori bilan muhokama qilindi va chop etishga tavsiya qilindi.

SO`Z BOSHI

Hozirgi davr shak-shubhasiz, «Informatsiya» bilan va uni avtomatik ravishda qayta ishlash imkonini beruvchi informatsion va komputer texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrni bejiz, informatsion shov-shuvlar asri deb atashmayapti[1]. Bu fikrning tasdig'i sifatida Internetni yodga olishning o'zi kifoya bo'lsa kerak. Adabiyotlarda «Modda», «Energiya» va «Informatsiya» moddiy olamning asosiy tashkil etuvchisi deb e'tirof etilmokda. Sivilizatsiyaning hozirgi kundagi rivoji, insoniyatning industrial jamiyatdan Informatsion jamiyat sari intilmoqda deyishga asos bo'la oladi.

Elektron hisoblash mashinasining yaratilishi ham, insoniyatning rivojlanish tarixida erishilgan eng yuksak kashfiyotlar sirasiga kiradi. Hozirgi kunga kelib komputer va global tarmoq, butun dunyo bo'yicha yig'ilgan misli ko'rilmagan katta hajmdagi informatsiyalarni insoniyat tomonidan foydalanilishiga imkon beradigan va uning intellektual imkoniyatlarini yuqori darajalarga ko'taruvchi juda ham kuchli vositaga aylandi.

Programma mahsulotlarining va texnik vositalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, komputerlarning apparat va programma ta'minotlarini tez ma'naviy eskirishiga olib kelmoqda. Hali foydalanuvchi yangi programma imkoniyatlarini to'liq o'zlashtirmasdan turib, sotuvga bu programmaning yanada mukammal variantlari taklif etilmoqda. Shunga qaramasdan komputerlar yaratishning va programmalash texnologiyalarining asosiy tamoyil va g'oyalari o'z kuchida qolmoqda.

Hozirgi kunda programma ta'minotlari orasida Microsoft firmasi tomonidan yaratilgan operatsion sistemalar (Windows, Windows NT, Windows XP), matn muharrirlari (Word), Elektron jadvallar (Excel), berilganlar bazasi (Access) kabi ilovalar va programmalash tillari hamda internetda ishlashning turli vositalari keng tarqalgan.

Windows muhitida foydalanuvchi interfeysini standartlashuvi foydalanuvchilarning komputer bilan muloqotini soddalashtirdi, ularni har bir yangi programma paydo bo'lganda yana qayta o'rganishdek zerikarli ishdan ozod qildi.

Informatsion texnologiyalarning yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, bu fan jadal sur'atlarda o'sib, yil sayin yangidan-yangi yo'nalishlarga, mutaxassisliklarga tarmoqlanib ketmoqda: algoritmik, mantiqiy, ob'ektga yo'naltirilgan, vizual, parallel programmalash texnologiyalari; animatsiya, multimediya, internet, berilganlar bazasi yunalishlari; ko'p protsessorli, neyron arxitekturali komputerlar va hokazo. Ko'rinib turibdiki, informatika meta fan darajasiga ko'tarilib, uni bitta o'quv kursi chegarasida to'liq o'zlashtirishning imkoni bo'lmay qoldi.

Informatsion texnologiyalar sohasi bo'yicha rus va ingliz tillarida qo'llanmalar juda ko'p chop etilmoqda. Oxirgi yillarda o'zbek tilidagi qo'llanmalar ham ko'payib qoldi.

Ushbu taklif etilayotgan qo'llanma programmalash (Delphi, Visual Basic, C++, C#) tillarini o'rganuvchilar, programma tuzishni o'rganayotganlar hamda "Programmalash asoslari", "Informatika va programmalash" fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun mo'ljallangan. Ushbu qo'llanmaga kiritilgan masalalar programmalashning bazaviy kursidagi deyarli barcha bo'limlarini, ya'ni skalyar tiplar va boshqaruv operatorlaridan tortib, ma'lumotlarning murakkab tiplari va rekursiv algoritmlarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanmaning har bir bo'limida namuna sifatida tanlangan masalalar uchun "Delphi" va "C++" tillarida programmalar tuzib ko'rsatilgan. Bir qator bo'limlarda qo'yilgan masalalar uchun tuzilgan programmalarga kiritiladigan qiymatlarning bir yoki bir necha variantlari hamda shu qiymatlarga mos programma qaytarishi lozim bo'lgan natijalar keltirilgan. Bulardan tashqari har bo'lim uchun qisqacha nazariy ma'lumotlar va masalalarni echishga doir tavsiyalar berilgan.

Kitobni yozishda M.E.Abramyanning "Электронный задачник по программированию" va V.N.Pilshikovning "Сборник упражнений по языку Паскаль" qo'llanmalaridan keng foydalanildi.

```
// c++11
constexpr size_t factorial(size_t value)
{
    return (value == 0 ? 1 : value * factorial(value - 1));
}

// c++14
constexpr size_t factorial(size_t value)
{
    auto result = 1;
    for (size_t i = 1; i <= value; ++i)
        result *= i;
    return result;
}
```

I BOB. SODDA PROGRAMMALAR

Komputer uchun tuzilgan algoritm ijrochisi-bu komputerdir. Biror programmalash tilida yozilgan algoritm kodlashtirilgan oddiy ko'rsatmalar ketma-ketligiga o'tadi va mashina tomonidan avtomatik ravishda bajariladi. Metodik nuqtai-nazardan qaraganda algoritmning birinchi ijrochisi sifatida o'quvchining o'zini olish muhim ahamiyatga ega. O'quvchi tomonidan biror masalani yechish algoritmi tuzilganda bu algoritmni to'g'ri natija berishini tekshiri juda muhimdir. Buning yagona usuli o'quvchi tomonidan algoritmni turli boshlang'ich berilganlarda qadamma - qadam bajarib (ijro etib) ko'rishdir. Algoritmni bajarish natijasida xatolar aniqlanadi va to'rilanadi. Ikkinchi tomonidan, masalani yechishga qiynalayotgan o'quvchi uchun tayyor algoritmni bajarish – masalani yechish yo'llarini tushunishga xizmat qiladi.

Algoritmni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

chiziqli algoritmlar,

tarmoqlanuvchi algoritmlar,

takrorlanuvchi yoki siklik algoritmlar,


ichma-ich joylashgan siklik algoritmlar,

rekurrent algoritmlar,

takrorlanishlar soni oldindan no'malum algoritmlar,

ketma-ket yaqinlashuvchi algoritmlar.


Faqat ketma-ket bajariladigan amallardan tashkil topgan algoritmlarga-chiziqli algoritmlar deyiladi. Bunday algoritmni ifodalash uchun ketma-ketlik strukturasi ishlatiladi. Strukturada bajariladigan amal mos keluvchi shakl bilan ko'rsatiladi. Chiziqli algoritmlarning blok - sxemasini umumiy strukturasi quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin.



Ushbu bobda chiziqli algoritmlar asosida echiladigan bir qator masalalar qaraladi.

Eslatma: kiritiladigan qiymatlar bir nechta bo'lsa ular bitta satrda bo'sh joylar bilan ajratib kiritiladi. Chiqariladigan natija ham bir nechta bo'lsa bo'sh joylar bilan ajratilgan holda bitta satrda chiqariladi.

1.1. Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish, qiymat berish operatori

34 – masala uchun programma	
 <pre> graph TD Start([Boshl.]) --> Input[/x, a, y, b/] Input --> Process[a1:=a/x; b1:=b/y; ab:=a1-b1;] Process --> Output[/a1, b1, ab/] Output --> End([Tamom]) </pre>	
Borland delphi tilida	Borland C++ tilida
<pre> program begin34; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var x,a,y,b:real; a1,b1,ab:real; begin read(x,a,y,b); a1:=a/x; b1:=b/y; ab:=a1-b1; write(a1:2:2,' ',b1:2:2,' ',ab:2:2); readln; readln; end. </pre>	<pre> #pragma begin34 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- ---- #pragma argsused int main(int argc, char **argv) { static float x,a,y,b; static float a1,b1,ab; cin>>x>>a>>y>>b; a1=a/x; b1=b/y; ab=a1-b1; cout<<a1<<' '<<b1<<' '<<ab; cin>>"\n"; return 0; } </pre>
O'zgaruvchilar izohi x, y – shokolad va iris miqdori(kg da) a, b – mos ravishda x va y kg shokolad va irislarining narxlari, a1-1 kg shokolad narxi, b1 – 1 kg iris narxi, ab- shokolad va iris narxlarining farqi.	

№	Masala	Qiymat	Natija
1.	Kvadratning tomoni a berilgan bo'lsa, uning perimetri P hisoblansin.	4	16
2.	Kvadratning tomoni a berilganda, uning yuzasi S hisoblansin.	3	9
3.	Tomonlari a va b bo'lgan to'g'ri to'rtburchak berilgan, uning yuzasi S va perimetri P hisoblansin	3 4	12 14
4.	Aylana diametri d berilgan, uning uzunligi L hisoblansin. Bu yerda Pi =3,14.	10	31.4
5	Kub qirrasining uzunligi a berilgan. Kubning hajmi V va uning sirtining yuzasi S hisoblansin.	4	64 96
6	To'g'ri to'rtburchak shaklidagi parallelopipedning qirralari a, b, c berilgan. Uning hajmi V va sirtining yuzi S lar hisoblansin.	1 2 3	6 22
7	Berilgan R radiusga ko'ra doira aylanasining uzunligi L va uning yuzi S hisoblansin.	10	62.8 314
8	Ikkita a va b sonlar berilgan. Ularning o'rta arifmetigi hisoblansin.	15 5	10
9	Ikkita manfiy bo'lmagan a va b sonlar berilgan. Ularning o'rta geometrigi hisoblansin.	4 25	10
10	Ikkita nolga teng bo'lmagan a va b sonlari berilgan. Ularning yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi va bo'linmasi hisoblansin.	4 2	6 2 8 2
11	Ikkita nolga teng bo'lmagan sonlar berilgan. Ularning yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi va ularning bo'linmasining moduli hisoblansin.	-8 2	-6 -10 -16 4
12	To'g'ri burchakli uchburchak a va b katetlari berilgan. Uning gipotenuzasi C hamda perimetri P hisoblansin.	3 4	5 12
13	Radiuslari R₁ va R₂ bo'lgan (R₁>R₂) hamda markazi umumiy 2 ta doira berilgan. Birinchi doiraning yuzi S₁ , ikkinchi doiraning yuzi S₂ hamda tashqi doiraning ichida va ichki	20 10	1256 314 942


	doiraning tashqarisida joylashgan yuza S_3 ($S_3=S_1-S_2$) hisoblansin.		
14	Doiraning aylana uzunligi L berilgan. Uning radiusi R va yuzi S hisoblansin.	62.8	10 314
15	Doiraning yuzi S berilgan. Uning diametri D va aylana uzunligi L hisoblansin.	314	20 62.8
16	Sonlar o'qida berilgan x_1 va x_2 nuqtalar orasidagi masofa (x_2-x_1) hisoblansin.	5 10	5
17	Sonlar o'qida A, B, C nuqtalar berilgan. AC va BC kesmalar uzunligi va ularning yig'indisi hisoblansin.	10 20 30	20 10 30
18	Sonlar o'qida A, B, C nuqtalar berilgan.(Bu yerda C nuqta A va B nuqtalar orasida yotadi deb hisoblanadi) AC va BC kesmalar uzunliklari hamda ularning ko'paytmasi hisoblansin.	10 30 20	10 10 100
19	To'g'ri burchakli to'rtburchakning qarama-qarshi uchlari (x_1, y_1) va (x_2, y_2) lar berilgan. To'g'ri to'rtburchakning tomonlari koordinata o'qlariga parallel deb hisoblanib, uning perimetri va yuzasi hisoblansin.	1 1 4 3	10 6
20	Tekislikda koordinatalari bilan berilgan ikki nuqta orasidagi masofa hisoblab topilsin.	2 2 6 5	5
21	Uchburchakning uchlarining koordinatalari berilgan. Ular (x_1, y_1), (x_2, y_2), (x_3, y_3) hisoblanadi. Ikki nuqta orasidagi masofani topish formulasi va Geron formulasidan foydalanib uning perimetri hamda yuzasi hisoblansin.	1 1 5 1 1 4	12 6
22	A va B o'zgaruvchilardagi qiymatlarni almashtiradigan programma tuzilsin.	5 10	10 5
23	A, B va C o'zgaruvchilarining qiymatlari quyidagicha almashtirilsin: $A \rightarrow B, B \rightarrow C, C \rightarrow A$ va chiqarilsin.	2 4 6	6 2 4

24	A, B va C o`zgaruvchilarining qiymatlari quyidagicha almashtirilsin. $C \rightarrow B$, $B \rightarrow A$, $A \rightarrow C$ va chiqarilsin.	2 4 6	4 6 2
25	x ning berilgan qiymatida $y=3x^6-6x^3-7$ qiymati hisoblansin.	1	-10
26	x ning berilgan qiymatida $y=4(x-3)^6-7(x-3)^3+2$ qiymati hisoblansin.	3	2
27	A soni berilgan. A^2 , A^4 , A^5 ketma-ketlik uchun yordamchi o`zgaruvchilardan foydalanib 3 ta ko`paytirish amalini bajarib, A^5 hisoblansin va barcha A ning ko`rsatilgan darajalari ekranga chiqarilsin.	2	4 16 32
28	A soni berilgan. A^2 , A^3 , A^5 , A^{10} , A^{15} ketma-ketlik uchun 2 ta yordamchi o`zgaruvchidan va 5 ta ko`paytirish amalidan foydalanib, A^{15} hisoblansin.	2	32768
29	α burchak ($0 < \alpha < 360^\circ$) gradusda berilgan. Unga mos radian qiymat topilsin.	180	3.14
30	α burchak ($0 < \alpha < 2\pi$) radianda berilgan. Uning gradusdagi qiymati topilsin.	3.14	180
31	T temperatura Ferenget birligida berilgan. Uning Sel'siy birligidagi qiymati topilsin. Bu yerda $T_c = (T_F - 32) \cdot 5/9$.	32	0
32	T temperatura Sel'siy birligida berilgan. Ferenget birligiga o'tkazing va bu yerda $T_F = 915 \cdot T_c + 32$.	5	41
33	Ma'lumki, x kg konfet A so'm turadi. 1 kg konfet b va y kg konfetlar qancha turishi aniqlansin.	5 2500 2	500 1000
34	Ma'lumki, x kg shokolad A so'm, y ▲ kg iris B so'm turadi. 1 kg shokoladniy konfet va 1 kg iris qancha turishini va shokoladniy konfet, irisdan qancha qimmatligi aniqlansin.	5 10000 2 2000	2000 1000 1000
35	Turg'un suvdagi qayiqning tezligi V km/soat hamda daryo oqimining tezligi U km/s bo'lsin. ($U < N$).	5 3 2 3	16

	Qayiqning ko'ldagi harakat vaqti T_1 soat, daryo oqimiga Qarshi harakati T_2 soat bo'lsa, qayiqning bosib o'tgan umumiy yo'lini toping.		
36	Birinchi avtomobilning tezligi V_1 , ikkinchisidiki V_2 , ular orasidagi masofa S km. Avtomobillar bir-biridan uzoqlashayotgan bo'lsa, T vaqtdan keyingi ular orasidagi masofa hisoblansin.	5 10 20 2	50
37	Birinchi avtomobilning tezligi V_1 , ikkinchisidiki V_2 , ular orasidagi masofa S km. Avtomobillar bir-biriga tomon harakatlanayotgan bo'lsa, T vaqtdan keyingi ular orasidagi masofa hisoblansin.	10 15 100 2	50
38	$ax+b=0$ ($a \neq 0$) chiziqli tenglama koefitsientlari berilgan bo'lsa, noma'lum x hisoblansin.	2 -4	2
39	$ax^2+bx+c=0$ kvadrat tenglama a,b,c ($a \neq 0$) koefitsienti bilan berilgan bo'lsin. Uni musbat diskriminantga ega deb hisoblab, uning ildizlari hisoblansin.	1 -5 6	2 3
40	$a_1, b_1, c_1, a_2, b_2, c_2$ koefitsientlar bilan berilgan, quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan $\begin{cases} a_1x + b_1y = c_1 \\ a_2x + b_2y = c_2 \end{cases}$ chiziqli tenglamalar sistemasining yechimi hisoblansin.	1 1 5 2 -1 4	3 2

1.2. Butun sonlar.

Ushbu guruhdagi barcha kiritiladigan va chiqariladigan ma'lumotlar butun sonlardan iborat bo'ladi.

29– masala uchun programma	
 <pre> graph TD Start([Boshl.]) --> Input[/a,b,c/] Input --> Process[n1:=a div c; n2:=b div c; n:=n1*n2; n1:=a mod c; n2:=b mod c; Sqolgan:=n1*b+n2*a-n1*n2;] Process --> Output[/n,Sqolgan/] Output --> End([Tamom]) </pre> “div”-butunga bo'lish amali “mod”-qoldiqni topish amali	
Borland delphi tilida	Borland C++ tilida
<pre> program integer29; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var a,b,c,n,n1,n2,Sqolgan:integer; begin read(a,b,c); n1:=a div c; n2:=b div c; n:=n1*n2; n1:=a mod c; n2:=b mod c; Sqolgan:=n1*b+n2*a- n1*n2; write(n,' ',Sqolgan); readln; readln; end. </pre>	<pre> #pragma integer29 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- ----- #pragma argsused int main(int argc, char **argv) { static int a,b,c,n,n1,n2,Sqolgan; cin>>a>>b>>c; n1=a / c; n2=b / c; n=n1*n2; n1=a % c; n2=b % c; Sqolgan=n1*b+n2*a- n1*n2; cout<<n<<' '<<Sqolgan; cin>>"\n"; return 0; } </pre>

O'zgaruvchilar izohi: ***a***, ***b*** – to'rtburchak tomonlari, ***c*** – kvadrat tomoni, ***n*** – to'rtburchakka joylashadigan kvadratlar soni, ***n1***, ***n2*** – yordamchi o'zgaruvchilar, ***Sqolgan*** - to'rtburchakdagi kvadratlar ajratib olingandan keyingi qoldiq yuza.

“div”-butunga bo'lish amali

“mod”-qoldiqni topish amali

№	Masala	Qiymat	Natija
1.	Masofa <i>L</i> <i>sm</i> berilgan. <i>Sm</i> larni <i>metr</i> larga aylantiring va butun qismini toping.	1025	10
2.	Og'irlik <i>m gramm</i> da berilgan. Butunga bo'lish amalidan foydalanib, uning <i>kg</i> dagi ifodasi topilsin.	5000	5
3.	Fayl o'lchami baytda berilgan. Butunga bo'lish amali yordamida, uni kilobaytlardagi ifodasi topilsin.	2048	2
4.	<i>A</i> va <i>B</i> butun musbat sonlar berilgan bo'lib ular kesmalarining uzunliklari hisoblanadi va <i>B</i> kesma <i>A</i> kesmani to'liq qoplaydi yoki bir necha <i>B</i> uzunlikdagi kesmalar yig'indisi <i>A</i> kesмага teng deb hisoblab, <i>A</i> kesma nechta <i>B</i> kesmadan tashkil topgani aniqlansin.	24 3	8
5	<i>A</i> va <i>B</i> butun musbat sonlar berilgan. Bir necha <i>B</i> kesma uzunliklari yig'indisining mumkin bo'lgan eng kattasiga teng <i>A</i> kesma uzunligi ajratilsin.	25 3	24
6	Ikki xonali son berilgan. Dastlab uning chap qismdagi raqamini so'ngra o'ng qismdagi raqamini alohida-alohida ekranga chiqaring. Bu ishni bajarishda butunga bo'lish va qoldiqni hisoblash amallaridan foydalaning.	65	6 5
7	Ikki xonali son berilgan, uning raqamlar yig'indisi va ko'paytmasi topilsin.	23	5 6
8	Ikki xonali son berilgan, uning raqamlari o'rnini almashtirish natijasida hosil bo'lgan sonni	76	67


	ekranga chiqarilsin.		
9	Uch xonali son berilgan. Butunga bo`lish amalidan bir marta foydalanib uning birinchi raqamini ekranga chiqarilsin.	324	3
10	Uch xonali son berilgan, uning oxirgi va o`rta xonasidagi raqamlar ekranga chiqarilsin.	324	4 2
11	Uch xonali son berilgan, uning raqamlar yig`indisi ekranga chiqarilsin.	324	9
12	Berilgan uch xonali sonning uni teskari tomondan o`qigandagi son ekranga chiqarilsin.	324	423
13	Uch xonali son berilgan, uning birinchi raqamini oxiriga o`tkazib hosil bo`lgan sonni ekranga chiqaring.	324	243
14	Uch xonali son berilgan. Uning o`ng tomonidagi 1-raqamini olib, chap tomonidan joylashtiring va hosil bo`lgan sonni ekranga chiqaring.	324	432
15	Uch xonali son berilgan. Uning o`nlik va yuzlik xonalaridagi raqamlarini almashtirish natijasida hosil bo`lgan sonni ekranga chiqaring.	324	234
16	Uch xonali son berilgan. Uning o`nlik va birlik xonalaridagi raqamlarini almashtirish natijasida hosil bo`lgan sonni ekranga chiqaring.	324	342
17	999 dan katta bo`lgan butun son berilgan. 1 marta butunga bo`lish va 1 marta qoldiqni topish amalidan foydalanib, shu sonning 100 lik xonasidagi raqam aniqlansin.	1234	2
18	999 dan katta bo`lgan butun son berilgan. 1 marta butunga bo`lish va 1 marta qoldiqni topish amalidan foydalanib, shu sonning 1000 lik xonasidagi raqam aniqlansin.	1234	1
19	Sutkaning N-sekundi bo`lsa, sutka boshidan buyon necha minut	300	5

	o`rganligi aniqlansin.		
20	Sutkani N-sekundi bo`lsa, sutka boshidan buyon necha soat o`rganligini aniqlansin.	7200	2
21	Sutkani N-sekundi bo`lsa, sutka boshidan buyon o`rgan sekundlarni minutga aylantiring va oxirgi minutdan keyingi sekundlarni aniqlang.	306	6
22	Sutkani N-sekundi bo`lsa, sutka boshidan buyon o`rgan sekundlarni minutga aylantiring va oxirgi soatdan keyingi sekundlarni aniqlang.	3636	36
23	Sutka sekundlarda berilgan. O`rgan sekundlarni soatga aylantirib, o`rgan(oxirgi) soatdan keyingi minutni aniqlang.	7230	30
24	T 1 yanvar dushanba bo`lib, hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo`lsa; 0-yakshanba, 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba bo`lsa, berilgan K (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to`g`ri kelishi aniqlansin.	100	2
25	T 1 yanvar payshanba bo`lib, hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo`lsa; 0-yakshanba, 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba bo`lsa, berilgan K (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to`g`ri kelishi aniqlansin.	100	5
26	T 1 yanvar seshanba bo`lib, hafta kunlari quyidagi nomerlangan bo`lsa; 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba, 7-yakshanba bo`lsa, berilgan K (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to`g`ri kelishi aniqlansin.	100	3

27	T 1 yanvar shanba bo`lib, hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo`lsa; 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba, 7-yakshanba bo`lsa, berilgan K (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to`g`ri kelishi aniqlansin.	100	7
28	T 1 yanvar N-hafta kunidan boshlanadi ($N \in [1; 7]$), hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo`lsa; 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba, 7-yakshanba bo`lsa, berilgan K (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to`g`ri kelishi aniqlansin.	3 100	4
29	▲ A, B, C butun musbat sonlar berilgan. A va B to`g`ri to`rtburchakning tomonlarini bildiradi. Shu $A \times B$ o`lchamli to`g`ri to`rtburchakdan tomoni C ga teng bo`lgan nechta kvadrat ajratish mumkinligi va so`ngra to`g`ri to`rtburchakning qolgan qismi yuzasi aniqlansin.	5 10 2	10 10
30	Qaysidir yil berilgan Shu yilning qaysi asrga tegishli ekanligi aniqlansin, asr boshi quyidagicha hisoblanadi, misol: 20 asr 1901 yildan boshlanadi.	1336	14

1.3. Mantiqiy ifodalar.

Ushbu topshiriqlar uchun qiymat va natijalarning 2 yoki undan ortiq varianti keltirildi. Har bir variantni bajarishda tuzilgan programma yangidan ishga tushirilishi kerak.

35 – masala uchun programma	
 “odd” – toqlikka tekshirish “not” – inkor amali “and” – mantiqiy qo'shish amali “or” – mantiqiy ko'paytirish amali	
Borland delphi tilida	Borland C++ tilida
<pre> program boolean35; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var x1,y1,x2,y2:byte; b:boolean; begin read(x1,y1,x2,y2); b:=(odd(x1+y1)and odd(x2+y2))or (not odd(x1+y1)and not odd(x2+y2)); writeln(b); readln; readln; end. </pre>	<pre> #pragma boolean35 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- ----- #pragma argsused int main(int argc, char **argv) { static int x1,y1,x2,y2; bool b; cin>>x1>>y1>>x2>>y2; b=((x1+y1)%2==0 && (x2+y2)%2==0) ((x1+y1)%2!=0 && (x2+y2)%2!=0); cout<<b; cin>>"\n"; return 0; } </pre>
O`zgaruvchilar izohi: <b>x1, y1</b> –shaxmat taxtasining 1-tanlangan katagi koordinatasi, <b>x2, y2</b> –shaxmat taxtasining 2-tanlangan katagi koordinatasi, <b>b</b> – natijaviy qiymat uchun o`zgaruvchi	

№	Masala	Qiymat	Natija
1.	A butun soni berilgan. Uning musbatligi tekshirilsin.	2 -4	true false
2.	A butun soni berilgan. Uning juftligini rostlikka tekshirilsin.	4 7	true false
3.	A butun soni berilgan. Uning toqligi rostlikka tekshirilsin.	9 12	true false
4.	A va B butun sonlar berilgan bo'lsin, ularni ($A > 2$ va $B \leq 3$) bo'lgan hol uchun rostlikka tekshirilsin.	5 1 1 2	true false
5	A va B butun sonlar berilgan bo'lsin, ularni ($A \geq 0$ va $B < -2$) bo'lgan hol uchun rostlikka tekshirilsin.	1 -3 0 0	true false
6	A, B, C butun sonlar berilgan. Ular ($A \leq B \leq C$) holat uchun rostlikka tekshirilsin.	1 2 3 3 2 1	true false
7	A, B, C butun sonlar berilgan. B soni A va C sonlar orasida yotishi rostlikka tekshirilsin.	1 2 3 3 2 1	true false
8	A va B butun sonlar berilgan, ular har biri toq bo'lmagan hol uchun rostlikka tekshirilsin.	2 4 2 5	true false
9	A va B butun sonlar berilgan, ularning hech bo'lmaganda bittasi toq ekanligi rostlikka tekshirilsin.	2 3 2 4	true false
10	A va B butun sonlar berilgan, bu sonlardan biri toq ekanligi rostlikka tekshirilsin.	2 3 3 5	true false
11	A va B butun sonlar berilgan, ularning bir xil juftlikka ega ekanligi tekshirilsin.	3 5 4 7	true false
12	A, B, C butun sonlar berilgan. Ularning har birini musbat ekanligi rostlikka tekshirilsin.	5 6 7 -5 6 7	true false
13	A, B, C butun sonlar berilgan. Ularning hech bo'lmaganda bittasi musbat ekanligi rostlikka tekshirilsin.	-2 4 5 -2 -4 0	true false
14	A, B, C butun sonlar berilgan. Faqat ulardan bittasi musbatligi rostlikka tekshirilsin.	-4 9 -11 4 -9 11	true false
15	A, B, C butun sonlar berilgan. Ulardan faqat ikkitasi bir vaqtda	4 -9 11 -4 9 -11	true false

	musbat ekanligi rostlikka tekshirilsin.		
16	Butun musbat son berilgan. Uning juftligi va ikki xonali ekanligi rostlikka tekshirilsin.	12 101	true false
17	Butun musbat son berilgan. Ularning toqligi va uch xonali ekanligi rostlikka tekshirilsin.	101 12	true false
18	Berilgan uchta sondan olingan juftlik o`zaro teng bo`lishi rostlikka tekshirilsin.	2 3 2 4 6 3	true false
19	Berilgan uchta butun sonlar orasidan olingan juftliklardan hech bo`lmaganda bittasi o`zaro qarama-qarshi juftlikni tashkil etishi rostlikka tekshirilsin.	1 2 -2 1 2 3	true false
20	Uch xonali son berilgan. Bu son raqamlarining har xil ekanligi rostlikka tekshirilsin.	1 2 3 1 2 1	true false
21	Uch xonali son berilgan. Uning raqamlari o`suuvchi ketma-ketlik tashkil etishi rostlikka tekshirilsin.	2 4 5 2 4 3	true false
22	Uch xonali son berilgan. Uning raqamlari o`suuvchi yoki kamayuvchi ketma-ketlik tashkil etishi rostlikka tekshirilsin.	5 4 2 1 2 3 2 3 2	true true false
23	To`rt xonali son berilgan. Uni chapdan o`ngga va o`ngdan chapga o`qiganda bir xil o`qilishi rostlikka tekshirilsin.	1221 1201	true false
24	A, B, C sonlar berilgan($A \neq 0$). Bu sonlarni kvadrat tenglama koefisientlari deb hisoblab shu kvadrat tenglamaning haqiqiy yechimga ega ekanligini rostlikka tekshiring.	1 -5 6 2 -5 6	true false
25	x, y sonlari berilgan. Ularni koordinatalar deb hisoblab 2-chorakda yotishini rostlikka tekshiring.	-2 3 2 -3	true false
26	x, y sonlari berilgan. Ularni koordinatalar deb hisoblab 4-chorakda yotishini rostlikka tekshiring.	2 -3 -2 3	true false
27	x, y sonlari berilgan. Ularni	-4 -6	true

	koordinatalar deb hisoblab 2- yoki 3-chorakda yotishini rostlikka tekshiring.	5 -7	false
28	x, y sonlari berilgan. Ularni koordinatalar deb hisoblab 1- yoki 3-chorakda yotishini rostlikka tekshiring.	5 5 -4 3	true false
29	Tekislikda nuqta x va y koordinatalari bilan berilgan. Shu nuqtaning yuqori chap burchagi (x_1, y_1) , quyi o`ng burchagi $(x_3, y_3)$ bo`lgan hamda tomonlari koordinata o`qlariga parallel to`g`ri burchakli to`rtburchakning ichida yotishi yoki yotmasligi rostlikka tekshirilsin.	1 1 0 2 2 0 3 1 0 2 2 0	true false
30	a, b, c , butun sonlar berilgan bo`lib, ular uchburchakning tomonlarini tashkil etadi. Shu uchburchakning teng tomonli ekanligini rostlikka tekshirilsin.	5 5 5 5 4 5	true false
31	a, b, c , butun sonlar berilgan bo`lib, ular uchburchakning tomonlarini tashkil etadi. Shu uchburchakning teng yonli ekanligini rostlikka tekshirilsin.	5 4 5 5 5 5	true false
32	a, b, c , butun sonlar berilgan bo`lib, ular uchburchakning tomonlarini tashkil etadi. Shu uchburchakning to`g`ri burchakli ekanligini rostlikka tekshirilsin.	5 12 13 3 4 2	true false
33	Uchta butun son berilgan. Shu sonlarning uchburchakning tomonlarini tashkil etishi rostlikka tekshirilsin.	5 6 7 2 1 4	true false
34	Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab, (uning kataklarini 1 dan 8 gacha butun sonlar bilan belgilangan), shu burchakdagi katakcha qora bo`lganda, berilgan katak qora bo`lsa rost, aks holda yolg`on ekanligi tekshirilsin.	5 7 2 3	true false
35	Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab, (uning kataklari 1 dan 8	3 4 8 7 3 2 8 6	true false

	gacha butun sonlar bilan belgilangan), uning ikkala qismidan bittadan katakcha berilgan. Tanlangan katakchalar bir xil rangdaligi rostlikka tekshirilsin.		
36	Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab(uning kataklari 1 dan 8 gacha butun sonlar bilan belgilangan), uning ikkita qismidan bittadan katak olingan. Shu kataklardagi piyodalarning bir qadamda boshqa qismga o'tishligi rostlikka tekshirilsin.	1 4 2 5 1 4 2 7	true false
37	Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab, (uning kataklari 1 dan 8 gacha butun sonlar bilan belgilangan), berilgan koordinatada shaxmat doskasining ikkala taxtasi joylashgan, har ikkala taxtada mavjud shoxlarning bir yurishda boshqa taxtaga o'tishi rostlikka tekshirilsin.	1 4 2 5 1 4 2 6	true false
38	Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab, (uning kataklari 1 dan 8 gacha butun sonlar bilan belgilangan), berilgan koordinatada shaxmat doskasining ikkala taxtasi joylashgan, har ikkala taxtada mavjud fillarning bir yurishda(faqat chap tomonga) boshqa taxtaga o'tishi rostlikka tekshirilsin.	6 1 3 8 6 1 6 8	true false
39	Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab, (uning kataklari 1 dan 8 gacha butun sonlar bilan belgilangan), berilgan koordinatada shaxmat doskasining ikkala taxtasi joylashgan, har ikkala taxtada mavjud farzinlarning bir yurishda boshqa taxtaga o'tishi rostlikka tekshirilsin.	3 4 5 6 1 2 5 6	true true
40	Shaxmat taxtasining quyi chap	3 3 4 5	true


burchagini koordinata boshi deb
hisoblab, (uning kataklari 1 dan 8
gacha butun sonlar bilan
belgilangan), berilgan koordinatada
shaxmat doskasining ikkala taxtasi
joylashgan, har ikkala taxtada
mavjud otlarning bir yurishda
boshqa taxtaga o'tishi rostlikka
tekshirilsin.

3 3 5 8

false

II BOB. SHARTLI VA TANLASH OPERATORLARI.

Agar hisoblash jarayoni biror bir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo'yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi. Tarmoqlanuvchi algoritmlar uchun ayri strukturasi ishlatiladi. Tarmoqlanuvchi strukturasi berilgan shartning bajarilishiga qarab ko'rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta'minlaydi.




Berilgan shart romb orqali ifodalanadi, P-berilgan shart. Agar shart bajarilsa, "**ha**" tarmoq bo'yicha **a** amal, shart bajarilmasa "**yo`q**" tarmoq bo'yicha **b** amal bajariladi.

Ba'zi masalalarni echishda berilgan bir necha variant orasidan bittasini tanlashga to'g'ri keladi. Bu ishlarni tanlash operatori yordamida hal etish mumkin. Ushbu bobda shart va tanlash operatorlari yordamida hal etilishi mumkin bo'lgan masalalar keltirilgan.

Eslatma: Qiymatlarni kiritishda ular soni bir nechta bo'lsa bitta satrda orasiga bo'sh joylar tashlangan holda kiritilish kerak. Natija ham xuddi shu ko'rinishda chiqariladi.

2.1. Shartli operator.

Ushbu masalalar uchun qiymat va natijalarning bir va undan ortiq variantlari keltirildi. Har bir variantni bajarishda tuzilgan programma yangidan ishga tushirilishi kerak.

29– masala uchun	
 <pre> graph TD Start([Boshl.]) --> A[/a/] A --> D1{a=0} D1 -- ha --> N0[/nol/] D1 -- yo`q --> D2{a>0}     D2 -- ha --> M[/musbat/]     D2 -- yo`q --> Ma[/manfiy/] M --> D3{a toq} Ma --> D3 D3 -- ha --> T[/toq son/] D3 -- yo`q --> J[/juft son/] N0 --> End([Tamom]) T --> End J --> End </pre>	
Borland delphi tilida	Borland C++ tilida
<pre> program if29; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var x:integer; begin read(x); if x>0 then if odd(x)then write('musbat toq son') else write('musbat juft son') else if x<0 </pre>	<pre> #pragma if29 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- ----- #pragma argsused int main(int argc, char **argv) { int x; cin>>x; if (x>0) if (x%2!=0)cout<<"musbat toq son"; else cout<<"musbat juft son"; else if (x<0) if (x%2!=0)cout<<"manfiy toq son"; else cout<<"manfiy juft son"; else </pre>

<pre> then if odd(x)then write('manfiy toq son') else write('manfiy juft son') else write('Nol'); readln; readln; end.</pre>	<pre> cout<<"Nol"; cin>>"\n"; return 0; }</pre>
O`zgaruvchilar izohi: <math>x</math> – qiymat sifatida kiritiladigan butun son uchun o`zgaruvchi.	

№	Masala	Qiymat	Natija
1.	Butun son berilgan. Agar u musbat bo`lsa unga 1 qo`shilsin, aks holda o`zgarishsiz qoldirilsin. Olingan son chiqarilsin.	6 -5	7 -5
2.	Butun son berilgan. Agar u manfiy bo`lsa unga 1 qo`shilsin, aks holda 2 ayirib tashlansin. Olingan son chiqarilsin.	-5 4	-4 2
3.	Butun son berilgan. Agar u manfiy bo`lsa 2 ni ayiring, 0 ga teng bo`lsa 10 bilan almashtirilsin. Olingan son chiqarilsin.	-4 0 5	-6 10 5
4.	Uchta butun son berilgan. Ular orasidan musbatlari soni topilsin.	4 -5 6	2
5	Uchta butun son berilgan. Ular orasidan musbatlari va manfiylari soni topilsin.	4 -5 6	2 1
6	Ikkita son berilgan. Ulardan kattasi chiqarilsin.	-2 0	0
7	Ikkita son berilgan. Ulardan kichigining tartib raqami chiqarilsin.	-6 3	1
8	Ikkita son berilgan. Ulardan dastlab kattasi so`ngra kichigi navbat bilan chiqarilsin.	1 2	2 1
9	Ikkita haqiqiy turga tegishli A va B o`zgaruvchilari berilgan. Ularning qiymatlari quyidagicha qayta taqsimlangan: A ga kichik B ga katta qiymat. A va B larning yangi qiymatlari chiqarilsin.	1.28 1.09	1.09 1.28
10	Ikkita butun turga tegishli A va	12 12	0 0

	B o`zgaruvchilar berilgan, agar ularning qiymatlari teng bo`lmasa har bir o`zgaruvchiga qiymatlar yig`indisi berilsin, aks holda har bir o`zgaruvchiga 0 qiymat qiymatlansin. O`zgaruvchi-larning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.	45 13	9 4
11	Ikkita butun turga tegishli A va B o`zgaruvchilar berilgan, agar ularning qiymatlari teng bo`lmasa har ikkala o`zgaruvchiga ham qiymatlarning kattasi qiymatlansin, aks holda har ikkala o`zgaruvchiga 0 qiymatlansin. O`zgaruvchilarning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.	15 15 45 13	0 0 45 45
12	Uchta son berilgan. Ular orasidan eng kichigi topilsin.	4 2 6	2
13	Uchta son berilgan. Ular orasidan o`rtachasi topilsin.	4 2 6	4
14	Uchta son berilgan. Ular orasidan dastlab eng kichigi so`ngra eng kattasi chiqarilsin.	4 2 6	2 6
15	Uchta son berilgan. Ularning ikkita eng kattasining yig`indisi chiqarilsin.	4 2 6	10
16	Haqiqiy turga tegishli uchta A , B , C o`zgaruvchilar berilgan. Agar ularning qiymatlari o`shish tartibida joylashgan bo`lsa, ularning qiymatlarini ikki marta oshiring, aks holda har bir o`zgaruvchining qiymatini teskarisi bilan almashtiring. O`zgaruvchilarning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.	1.2 2.1 4.6 4.0 2.0 5.0	2.4 4.2 9.2 0.25 0.5 0.2
17	Haqiqiy turga tegishli uchta A , B , C o`zgaruvchilar berilgan. Agar o`zgaruvchilarning qiymatlari o`shish yoki kamayish tartibida joylashgan bo`lsa, har birining qiymatini ikki martaga oshiring, aks holda o`zgaruvchilarning qiymatlari qarama-qarshisi bilan almashtirilsin. O`zgaruvchilarning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.	6.1 3.2 2.0 5.0 2.0 4.0	12.2 6.4 4.0 0.2 0.5 0.25
18	Uchta butun son berilgan.	4 -2 1	2

	Ulardan bittasi qolgan ikkitasidan ishoralari bilan farq qilsa, shu farq qiluvchi sonning tartib nomeri aniqlansin.		
19	To`rtta butun son berilgan. Ulardan bittasi qolgan uchtasidan farq qilsa(juft toqligi bilan) bu sonning tartib nomeri chiqarilsin.	9 3 5 2	4
20	Sonlar o`qida uchta A , B , C nuqta joylashgan. B va C nuqtalarning A nuqtaga eng yaqini hamda A nuqta bilan yaqin nuqta orasidagi masofa aniqlanib chiqarilsin.	50 20 40	40 10
21	Tekislikda butun sonlardan iborat koordinatalarga ega nuqta joylashgan. Agar u koordinata boshi bilan ustma-ust tushsa 0, OX o`qida joylashgan bo`lsa 1, OY o`qida joylashgan bo`lsa 2, aks holda 3, qiymat chiqarilsin.	0 0 5 4	0 3
22	OX va OY o`qlarida yotmaydigan nuqta koordinatalari berilgan. Uning qaysi chorakka tegishliligi aniqlanib chiqarilsin.	-2 4	2
23	To`g`ri to`rtburchakning 3 ta uchi butun sonlardan iborat koordinatalar bilan berilgan va shu uchlar orasidagi tomonlar koordinata o`qlariga parallel to`rtburchakning to`rtinchi uchining koordinatasi topilsin.	1 1 1 5 4 5	4 1
24	Berilgan haqiqiy x o`zgaruvchining qiymatiga mos keluvchi f funksiyaning qiymati hisoblansin. $f(x) = \begin{cases} 2 \sin x, & x > 0 \\ 6 - x, & x \leq 0 \end{cases}$	3.14 -2	0 8
25	Butun tipga tegishli x o`zgaruvchi berilgan. Unga mos keluvchi f funksiyaning butun qiymati hisoblansin. $f(x) = \begin{cases} 2x, & x < -2 \text{ yoki } x > 2 \\ -3x, & \text{aks holda} \end{cases}$	-4 1	-8 -3

26	Haqiqiy tipga tegishli x o'zgaruvchi berilgan. Uning qiymatiga mos keluvchi f funksiyaning qiymati topilsin.	-2 1 5	2 1 4
	$f(x) = \begin{cases} -x & x \leq 0 \\ x^2 & 0 < x < 2 \\ 4 & x \geq 2 \end{cases}$		
27	Haqiqiy tipga tegishli x o'zgaruvchi berilgan. Uning qiymatiga mos keluvchi f funksiyaning shu o'zgaruvchi qiymatlariga mos keluvchi butun qiymati topilsin.	-1 2 1	0 1 -1
	$f(x) = \begin{cases} 0, & x < 0 \\ 1, & x \in [0, 1) \cup [2, 3) \\ -1, & x \in [1, 2) \cup [3, 4) \end{cases}$		
28	Yil nomeri berilgan. Bu yildagi kunlar soni aniqlansin (ma'lumki kabisa bo'lmagan yil 365 kundan, kabisa yili 366 kundan iborat).	2000	366
29	Butun son berilgan. Uni satr ko'rinishida "manfiy juft son", "nol soni", "musbat toq son" va hokazo shaklda chiqarilsin.	2	musbat juft son
30	Butun son berilgan. 1-999 oraliqdagi, u sonlarni quyidagi satr ko'rinishda ifodalansin: "2 xonali juft son", "3 xonali toq son" va hokazo.	3	1 xonali toq son

2.2. Tanlash operatori.

13 – masala uchun programma	
Borland delphi tilida	Borland C++ tilida
<pre> program case13; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var a,c,h,s,x:real; n:1..4; begin read(n,x); case n of 1: begin </pre>	<pre> #pragma case13 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- ----- #pragma argsused int main(int argc, char **argv) { static float a,c,h,s,x; int n; </pre>

<pre> a:=x;c:=a*sqrt(2);h:=a/sqrt(2);s:=c*h/2;end; 2: begin c:=x; a:=c/sqrt(2);h:=c/2;s:=c*h/2; end; 3: begin h:=x; a:=h*sqrt(2);c:=2*h;s:=c*h/2; end; 4: begin s:=x; a:=sqrt(2*s);c:=(4*s)/(a*sqrt(2));h:=2*s/c;end; end; write('katet=',a:2:3,' ','gepotenuza=',c:2:3,' ', 'balandlik=',h:2:3,' ','yuza=',s:2:3); readln; readln; end. </pre>	<pre> cin>>n>>x; switch (n) { case 1: { a:=x;c:=a*sqrt(2);h:=a/sqrt(2);s:=c*h/2;} break; case 2: { c:=x; a:=c/sqrt(2);h:=c/2;s:=c*h/2; } break; case 3: { h:=x; a:=h*sqrt(2);c:=2*h;s:=c*h/2; } break; case 4: { s:=x; a:=sqrt(2*s);c:=(4*s)/(a*sqrt(2));h:=2*s/c;} break; } cout<<"katet="<<a<<" "<<"gepotenuza="<<c<<" "<< "balandlik="<<h<<" "<<"yuza="<<s; cin>>"\n"; return 0; } </pre>
O`zgaruvchilar izohi: a-katet, c-gipotenuza, b-balandlik, S – yuza, x-tanlangan element nomeri.	

No	Masala	Qiymat	Natija
1.	1-7 oraliq`idagi butun son berilgan. Ushbu sonlar orasidan tanlanganiga mos keladigan hafta kuni nomi ekranga chiqarlsin	2	Seshanba
2.	Bahoni anglatadigan K soni berilgan. Agar k=1 bo`lsa “yomon”, <b>k=2</b> bo`lsa “qoniqarsiz”, k=3 bo`lsa “qoniqarli”, <b>k=4</b> bo`lsa “yaxshi”, k=5 bo`lsa “a’lo” so`zlaridan birini, agar K bu oraliqda yotmasa “xato” so`zi ekranga chiqarilsin.	5 8	a’lo xato
3.	1-12 oraliqdagi sonlarga mos keluvchi oy nomerlari berilgan. Shu oylarga mos keladigan yil fasllarini ekranga chiqaring.	4	bahor

4.	1-12 oraliqdagi sonlarga mos keluvchi oy nomeri berilgan. Shu x oyga mos keluvchi(kabisa bo'lmagan yildagi) kunlar soni aniqlansin.	8	31
5	Arifmetik amallar quyidagi ko'rinishda nomerlangan. 1 "qo'shish", 2 "ayirish", 3 "ko'paytirish", 4 "bo'lish". N butun soni 1-4 orasida berilgan bo'lib, A va B ($B \neq 0$) haqiqiy sonlari berilganda N ga mos keluvchi amal bajarilsin va ekranga chiqarilsin.	3 6 8	48
6	Birliklar quyidagi ko'rinishda nomerlangan: 1-km, 2-m, 3-dm, 4-sm, 5-mm. Kesma uzunligi(haqiqiy son ko'rinishida) berilib, uning birligi tanlanganda metrdagi ifodasi topilsin.	3.5 1	3500
7	Massa birliklari quyidagi ko'rinishda nomerlangan. 1-mg, 2-gr, 3-kg, 4-sentr, 5-tonna . Jism massasi berilganda va uning birligi tanlanganda kg dagi ifodasi topilsin.	1500 2	1.5
8	To'g'ri sanani ifodalovchi kabisa bo'lmagan yilning (D) kuni va (M) oyi butun sonlar ko'rinishida berilgan. Berilgan sanadan oldingisi topilsin va ekranga chiqarilsin.	1 3	28 2
9	To'g'ri sanani ifodalovchi kabisa bo'lmagan yilning(D) kun va oy(M) butun sonlar ko'rinishida berilgan. Berilgan sanadan keyingisi topilsin va ekranga chiqarilsin.	31 12	1 1
10	Robot to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanishi mumkin.("1" Shimol, "2" G'arb, "3" Janub, "4" Sharq); va uch xil komandani qabul qila oladi, ya'ni 0 harakatni davom ettirish, 1-chapga burilish, -1 o'ngga burilish, C-robotning berilgan yo'nalishi bo'lib hamda N-unga uzatilgan buyruq	4 -1	Janub

- bo'lsin. Olingan buyruqdan keyingi robotning holati ekranga chiqarilsin.
- 11 Lokatr dunyoning biror tomoniga qarashga mo'ljallangan("1" Shimol, "2" G'arb, "3" Janub, "4" Sharq) va u uch xil sonli burilish buyruqlarini qabul qilishi mumkin: 1 chapga burilish, -1 o'ngga burilish, 2 180^0 ga burilish. C belgisi yordamida yo'nalish hamda N_1 va N_2 lar yordamida buyruqlar berilsa, lokatrning buyruqlar bajarilgandan keyingi yo'nalishi aniqlansin.
- 12 Doira elementlari quyidagi ko'rinishda nomerlangan: 1-radius, 2-diametr $D=2R$, 3-usunlik $L=2\pi R$, 4-yuza $S= \pi R^2$. Bu elementlardan birining nomeri va son qiymati berilgan bo'lsin. Berilgan doiraning qolgan elementlari haqidagi ma'lumotlar ekranga chiqarilsin. ($\pi=3,14$)
- 13 Teng yonli to'g'ri burchakli uchburchak elementlari berilgan. 1-katet a, 2-gipotenuza c, $c = a * \sqrt{2}$, 3-balandlik h, (gipotenuzaga tushirilgan) $h=c/2$, 4-yuza $S=c*h/2$. Bu elementlarning birortasining nomeri va son qiymati berilganda qolgan elementlarining qiymatlari ekranga chiqarilsin.
- 14 Teng tomonli uchburchakning elementlari quyidagicha nomerlangan. 1-tomoni a, 2-radius R_1 , (ichki chizilgan aylananing $R_1 = \left(\frac{\sqrt{3}}{6}\right) * a$), 3- R_2 (tashqi chizilgan $R_2=2R_1$), 4-yuza $S = a^2 * \frac{\sqrt{3}}{4}$
- Bu elementlarning birortasining nomeri va son qiymati berilganda qolgan elementlarining

	qiymatlari ekranga chiqarilsin.		
15	Karta gullari quyidagicha nomerlangan. 1-toppon, 2-g'isht, 3-chillik, 4-qarg'a. Kartaning 10 dan yuqori bo'lgan qismi quyidagicha: 11-valit, 12-dama, 13-karol, 14-tuz va $6 \leq k \leq 10$ dagi qismi o'z holicha nomerlangan. Ikkita butun N va M sonlari berilganda: N-kartaning tartibi ($6 \leq N \leq 14$), M-esa karta guli ($1 \leq M \leq 4$) berilganlarga mos keluvchi karta turi ekranga chiqarilsin.	10 4	10 qarg'a
16	Yoshni anglatuvchi 20-69 gacha bo'lgan butun sonlar berilgan. Berilgan yoshni so'z bilan ifodalab ekranga chiqarilsin.	16	o'n olti
17	10-40 oralig'idagi ayrim o'quv topshiriqlarining sonini bildiruvchi butun son berilgan. Topshiriqlar soni berilganda ekranga ularni satr ko'rinishda chiqarilsin.	25	yig'irma besh
18	100-999 oralig'idagi butun sonlar berilgan. Bu sonlarni satr ko'rinishida ifodalab ekranga chiqarilsin.	256	ikki yuz ellik olti
19	Sharq kalendarida 60 yillik sikl qabul qilingan, u un ikki yillik sikllardan tashkil topgan bo'lib quyidagi ranglar bilan aniqlanadi. Yashil, qizil, sariq, oq va qora. Har bir ichki sikldagi yil, hayvonlar nomi bilan nomlangan (sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, ajdarho, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it va cho'chqa). Agar yil raqami kiritilsa uning nomi aniqlansin.	1984	Yashil sichqon
20	To'g'ri sanani ifodalovchi ikkita D va M sonlari berilgan. Ularga mos keluvchi burj nomlari: suvchi, baliq, qo'y, buzoq, egizaklar, qisqichbaqa, arslon, parizod, tarozi, chayon, yoy, tog' echkisi.	22 3 14 3	qo'y baliq

III BOB. SIKL OPERATORLARI.

Eslatma: Qiymatlarni kiritishda ular soni bir nechta bo'lsa bitta satrda orasiga bo'sh joylar tashlangan holda kiritilish kerak. Sonlar nabori bilan ishlaganda nabordagi elementlar alohida satrda bo'sh joylar bilan kiritiladi. Natija ham xuddi shu ko'rinishda chiqariladi.

3.1.Parametrli sikl

30– masala uchun programma	
Borland delphi tilida	Borland C++ tilida
<pre> program for30; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var n,i:word; x,a,b,h,fx:real; begin read(n,a,b); h:=(b-a)/2; write(h:2:2, ' '); x:=a; for i:=0 to n do begin fx:=1-sin(x); write(fx:2:3, ' '); x:=x+h; end; readln; readln; end.</pre>	<pre> #pragma for30 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- ----- #pragma argsused int main(int argc, char **argv) { static short int n,i; static float x,a,b,h,fx; cin>>n>>a>>b; h=(b-a)/2; cout<<h<<" "; x=a; for (i=0;i<=n;i++) { fx=1-sin(x); cout<<fx<<" "; x=x+h; } cin>>"\n"; return 0; }</pre>

№	Masala	Qiymat	Natija
1.	K va N (N >0) butun sonlar berilgan. N marta K soni chiqarilsin.	3 4	3 3 3 3
2.	A va B butun sonlar berilgan(A > B). A va B sonlari orasidagi sonlarni o'sish tartibida chiqarilsin(A va B sonlari ham kiradi) hamda shu sonlar miqdori (soni) N chiqarilsin.	5 2	2 3 4 5 4
3.	A va B butun sonlar berilgan(A < B). A va B sonlari orasidagi sonlarni kamayish	3 7	7 6 5 4 4

	tartibida chiqarilsin(A va B sonlari ham kiradi) hamda shu sonlar miqdori (soni) N chiqarilsin		
4.	1 kg konfetning narxi haqiqiy sonda berilgan. 1,2,..., 10 kg konfetning bahosi chiqarilsin.	1.0	1 2 3 4 5 6 7 8 9 10
5	1 kg konfetning narxi berilgan. 0,1, 0,2, ..., 1 kg konfetning bahosi chiqarilsin.	10	1 2 3 4 5 6 7 8 9 10
6	1 kg konfetning narxi berilgan. 1,2, 1,4, ..., 2 kg konfetning bahosi chiqarilsin.	10	12 14 16 18 20
7	2 ta A va B butun sonlar berilgan. ($A < B$) A dan B gacha bo'lgan butun sonlar yig'indisi topilsin.	2 5	14
8	2 ta A va B butun sonlar berilgan. ($A < B$) A dan B gacha bo'lgan sonlarning ko'paytmasi topilsin.	2 5	120
9	A va B butun sonlar berilgan. ($A < B$) A dan B gacha bo'lgan sonlarning kvadratlar yig'indisini toping.	1 4	30
10	N butun soni berilgan($N > 0$). Yig'indi topilsin. $1 + 1/2 + \dots + 1/N$ (Yig'indi haqiqiy son)	2	1.5
11	N butun soni berilgan. Yig'indi topilsin. $N^3 + (N+1)^3 + (N+2)^3 + \dots + (2N)^3$. (Yig'indi butun son)	2	99
12	N butun soni berilgan. Ko'paytma topilsin. $1 \cdot 1, 1, 2 \cdot 1, 3 \cdot \dots \{1, N\}$ (N ta ko'paytuvchi).	2	1.32
13	N butun soni berilgan($N > 0$). Ifodaning qiymati topilsin $1, 1-1, 2+1, 3-\dots$ Shart operatori qo'llanilmasin.	2	-0.1
14	$N(N > 0)$ butun soni berilgan. Quyidagi formuladan foydalanib berilgan sonning kvadrati topilsin: $N^2 = 1 + 3 + 5 + \dots + (2N-1)$. Har bir qadamdagi yig'indini chiqaring (natijada 1 dan N gacha bo'lgan butun sonlarning kvadrati chiqadi).	4	1 4 9 16
15	A haqiqiy va N butun soni berilgan($N > 0$). A ning N - darajasi topilsin. $A^N = A \cdot A \cdot \dots \cdot A$. (A , N marta ko'paytirilgan)	1,5 2	2,25
16	A va N soni berilgan. Bitta sikldan foydalanib A sonining 1 dan N gacha bo'lgan darajalari chiqarilsin.	2 3	2 4 8
17	A va N sonlari berilgan. Bitta sikldan	3 3	40

	foydalanib yig`indi topilsin. $1+A+A^2+A^3+\dots+A^N$.		
18	A va N sonlari berilgan. Bitta sikldan foydalanib ifodaning qiymati topilsin. $1-A+A^2-A^3+\dots+(-1)^N A^N$. Shart operatoridan foydalanilmasin.	2 4	11
19	$N(N>0)$ butun son berilgan. Ko`paytmani toping. $N!=1*2*\dots*N$ ( $N$ -faktorial). Ko`paytma butun sonlar tipi diapozonidan chiqib ketishi mumkin. Shuning oldini olish uchun haqiqiy tipli o`zgaruvchi e`lon qilinsin va ko`paytma hisoblab chiqarilsin.	5	120
20	N butun soni berilgan ($N>0$). Bitta sikldan foydalanib yig`indi hisoblansin. $1!+2!+\dots+N!$	4	33
21	N butun soni berilgan ($N>0$). Bitta sikldan foydalanib yig`indi hisoblansin. $1+1/(1!)+1/(2!)+\dots+1/(N!)$	2	2,5
22	X haqiqiy va N butun son berilgan ($N\geq 0$). Ifodaning qiymati topilsin. $1+x+x^2/(2!)+\dots+x^N/(N!)$	2 2	5
23	$x\in R$ va $N\in Z$ sonlar berilgan. Ifodaning qiymati topilsin. $x-x^3/(3!)+x^5/(5!)-\dots-(-1)^N x^{2N-1}/(2N-1)!$.	3 2	-1,5
24	X haqiqiy va N butun ($N\geq 0$) son berilgan. Ifodaning qiymatini toping. $1-x^2/(2!)+x^4/(4!)-\dots-(-1)^N x^{2N}/(2N)!$.	2.0 1	-1
25	X haqiqiy va N butun ($N>0$) son berilgan. Ifodaning qiymatini toping. $x-x^2/(2)+x^3/(3)-\dots+(-1)^{N-1} x^N/N$.	3.0 2	-1.5
26	X haqiqiy ($ x <1$) va N butun ($N>0$) son berilgan. Ifodaning qiymatini toping. $x-x^3/3+x^5/5+\dots+(-1)^{N-1} x^{2N-1}/(2N-1)$.	0.5 2	0.46
27	X haqiqiy ($ x <1$) va N butun ($N>0$) son berilgan. Ifodaning qiymatini toping. $x+1*x^3/(2*3)+1*3x^5/(2*4*5)+\dots+1*3*\dots(2N-1)x^{2N-1}/(2*4*\dots*(2N)*(2N+1))$.	0.5 2	0.52
28	X haqiqiy ($ x <1$) va N butun ($N>0$) son berilgan. Ifodaning qiymatini toping. $1+x/2-1*x^3/(2*4)+1*3x^3/(2*4*6)+\dots+(-1)^{N-1} 1*3*\dots(2N-3)x^{N-1}/(2*4*\dots(2N))$.	0.5 2	1.25
63	TDate yozuv tipi, DaysInMonth va CheckDate funksiyalaridan foydalanib, (59-61 – misollarga qarang) parametri TDate tipga tegishli bo'lgan berilgan D sanani o'zidan 1 kun keyingi sana bilan almashtiruvchi, agar sana xato bo'lsa o'zgarishsiz qoldiradigan, NextDate(D) protsedurasi tasvirlan-sin. (Bu yerda D yozuv tipli parametr, ma'lumotlarni qabul qiladi va qaytaradi.) NextDate protsedurasi 5 sana uchun qo'llanilsin.
64	Haqiqiy tipga tegishli X va Y maydonlarga ega bo'lgan TPoint yozuv tipi, hamda haqiqiy tipga tegishli parametrlari TPoint bo'lgan kesma uzunligini hisoblovchi Leng(A,B) funksiyasi tasvirlansin. AB , AC , AD kesmalar koordinatalari bilan berilgan bo'lsa, tasvirlangan funksiyadan foydalanib kesmalarning uzunliklari topilsin.

65	TPoint va Leng funksiyalaridan foydalanib (64ga qaralsin), tipi TPoint boʻlgan A,B,C maydonlarga ega TTriangle yozuv tipi hamda haqiqiy tipga tegishli parametri TTriangle tipli boʻlgan uchburchakning perimetrini topuvchi Perim(T) funksiyasi tasvirlansin. Agar A,B,C,D lar berilgan nuqtalar koordinatalari boʻlsa, (tekislikda) tasvirlangan funksiyadan foydalanib, ABC , ABD , ACD uchburchaklarning perimetrlari hisoblansin.
66 ▲	TPoint TTriangle tiplaridan va Leng , Perim funksiyalaridan foydalanib (64-65 – misollarga qaralsin) haqiqiy tipli parametri TTriangle tipli boʻlgan uchburchakning yuzini hisoblaydigan Area(T) funksiyasi tasvirlansin. Agar A, B, C, D lar tekislikda berilgan nuqtalarning koordinatalari boʻlsa, tasvirlangan funksiyadan foydalanib, ABC , ABD , ACD uchburchaklarning yuzalari hisoblansin.
67	TPoint , Ttriangle tiplari va Leng , Area funksiyalaridan foydalanib haqiqiy tipli, parametrlari TPoint tipli boʻlgan P nuqtadan kesmagacha boʻlgan masofani hisoblaydigan Dist(P,A,B) funksiyasi tasvirlansin. Agar P,A,B,C nuqtalar tekislikda koordinatalari bilan berilgan boʻlsa tasvirlangan funksiyadan foydalanib, P nuqtadan AB , AC , BC kesmalar yotuvchi toʻgʻri chiziqlargacha boʻlgan masofalar hisoblansin.
68	TPoint , TTriangle tiplari va Dist funksiyasidan foydalanib, (64-65, 67 – misollarga qaralsin) T parametri TTriangle tipga tegishli boʻlgan, uchburchakning h₁ , h₂ , h₃ balandliklarini hisoblaydigan Heights(T, h₁, h₂, h₃) prosedurasi tasvirlansin. Bu yerda T qiymat qabul qiluvchi parametr, h₁ , h₂ , h₃ lar esa qiymat chiqaruvchi parametrlar hisoblanadi. Tekislikda A, B, C, D nuqtalar koordinatalari bilan berilgan boʻlsa, tasvirlangan protseduradan foydalanib, T.A , T.B , T.C , T.D tomonlariga tushirilgan ABC , ABD , ACD uchburchaklarning balandliklari hisoblansin.
69	TPoint tipi va leng funksiyasidan foydalanib, (64 ga qarang) haqiqiy tipga tegishli N burchakli koʻpburchakning perimetrini hisoblovchi, tomonlari P , TPoint massiv tipga tegishli boʻlgan parametrli PerimN(P,N) funksiyasi tasvirlansin. T koʻpburchakning tomonlari soni va uchlarining koordinatalari berilgan boʻlsa, tasvirlangan funksiyadan foydalanib, 3 ta berilgan koʻpburchaklarning perimetrlari hisoblansin.
70	TPoint , TTriangle tiplari va Area funksiyasidan foydalanib, (64-66 ga qarang) haqiqiy tipga tegishli qavariq N burchakning yuzini hisoblaydigan (N -tomonlar soni, P - T .Point tipli massiv) AreaN(P,N) funksiyasi tasvirlansin. Koʻpburchaklarning tomonlari soni va uchlarining koordinatalari berilgan boʻlsa, tasvirlangan funksiyadan foydalanib 3 ta koʻpburchaklarning yuzalari hisoblansin.

**X BOB. REKURSIYA (OʻZ-OʻZIGA MUROJAAT).
ODDIY REKURSIV ALGORITM.**

6– masala uchun programma	
Borland delphi tilida	Borland C++ tilida
<pre> program rekursiya6; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var p,s,n,k:word; function combin1(k,n:word):integ er; begin s:=s+1; if ((n=0) or (n=k)) then combin1:=1 else combin1:=combin1(k,n- 1)+combin1(k-1,n-1); end; begin write('n= '); read(n); write('k1= '); read(k); s:=0; p:=combin1(k,n); writeln('n= ',n,' k= ',k,' bo`lganda  guruhlashlar soni = ',p);   writeln('Funksiyaga murojatlar soni ',s,' ta');   s:=0;   write('k2= ');   read(k);   p:=combin1(k,n);   writeln('n= ',n,' k= ',k,' bo`lganda guruhlashlar soni = ',p); writeln('Funksiyaga murojatlar soni ',s,' ta'); s:=0; write('k3= '); </pre>	<pre> #pragma rekursiya6 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- - #pragma argsused static int p,s,n,k; int combin1(int k,int n); int main(int argc, char **argv) { cout<<"n= "; cin>>n; cout<<"k1= "; cin>>k; s=0; p=combin1(k,n); cout<<"n= "<<n<<" k= "<<k<<" bo`lganda  guruhlashlar  soni  = "<<p<<"\n";   cout<<"Funksiyaga  murojatlar  soni "<<s<<" ta"<<"\n" ;   s=0;   cout<<"k2= ";   cin>>k;   p=combin1(k,n);   cout<<"n=  "<<n<<"  k=  "<<k<<" bo`lganda guruhlashlar soni = "<<p<<"\n"; cout<<"Funksiyaga murojatlar soni "<<s<<" ta"<<"\n"; s=0; cout<<"k3= "; cin>>k; p=combin1(k,n); cout<<"n= "<<n<<" k= "<<k<<" bo`lganda guruhlashlar soni = "<<p<<"\n"; cout<<"Funksiyaga murojatlar soni "<<s<<" ta"<<"\n"; s=0; </pre>

<pre> read(k); p:=combin1(k,n); writeln('n= ',n,' k= ',k,' bo`lganda guruhlashlar soni = ',p); writeln('Funksiyaga murojatlar soni ',s,' ta'); s:=0; readln; readln; end. </pre>	<pre> cin>>"\n"; return 0; } int combin1(int k,int n) { static int d; s=s+1; if ((n==0) (n==k)) d=1; else d=combin1(k,n-1)+combin1(k-1,n-1); return d; } </pre>
9– masala uchun programma	
<pre> program rekurs9; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; var a1,b1,c1,d1,k1,k2,k3:integer; function nod(a,b:integer):integer; begin if (b=0) then nod:=a else nod:=nod(b,a mod b); end; begin write('a= '); readln(a1); write('b= '); readln(b1); write('c= '); readln(c1); write('d= '); readln(d1); k1:=nod(a1,b1); k2:=nod(a1,c1); k3:=nod(a1,d1); writeln(a1,' va ',b1,' </pre>	<pre> #pragma recurs9 #include <condefs.h> #include <iostream.h> //----- ----- #pragma argsused static int a1,b1,c1,d1,k1,k2,k3; int nod(int a,int b); int main(int argc, char **argv) { cout<<"a= "; cin>>a1; cout<<"b= "; cin>>b1; cout<<"c= "; cin>>c1; cout<<"d= "; cin>>d1; k1=nod(a1,b1); k2=nod(a1,c1); k3=nod(a1,d1); cout<<a1<<" va "<<b1<<" larning EKUBi "<<k1<<"\n"; cout<<a1<<" va "<<c1<<" larning EKUBi "<<k2<<"\n"; cout<<a1<<" va "<<d1<<" larning EKUBi "<<k3<<"\n"; cin>>"\n"; return 0; } int nod(int a,int b) </pre>

<pre> larning EKUBi ',k1); writeln(a1,' va ',c1,' larning EKUBi ',k2); writeln(a1,' va ',d1,' larning EKUBi ',k3); readln; readln; end.</pre>	<pre> { if (b==0) return a; else nod(b,a % b); }</pre>
---	--

№

Masala

10.1. Oddiy rekursiv algoritmlar.

- Haqiqiy tipga tegishli $N!$ ni hisoblaydigan **Fact(N)** funksiyasi tasvirlansin. Berilgan 5 ta son uchun tasvirlangan funksiyadan foydalanib faktoriallar hisoblansin.
- Haqiqiy tipga tegishli ikkilangan faktorialni hisoblovchi ($N! = N * (N-2) * (N-4) \dots$) rekursiv **Fact2(N)** funksiyasi tasvirlansin. (Bu erda $N > 0$. Agar oxirgi ko'paytiruvchi juft bo'lsa $N=2$, toq bo'lsa $N=1$ deb olinsin.) Berilgan 5 ta son uchun bu funksiya yordamida ikkilangan faktoriallar hisoblansin.
- Haqiqiy tipga tegishli X ning N -darajasini hisoblaydigan, ($X^0=1$, N juft bo'lganda $X^N=(X^{N/2})^2$ ($N > 0$), N toq bo'lganda $X^N=X * X^{N-1}$ $N > 0$, $N < 0$ bo'lganda $X^N=1/(X^{-N})$) rekursiv **PowerN(x,N)** funksiyasi tasvirlansin. (X haqiqiy tipga tegishli ($x \neq 0$), N -butun tipga tegishli). Bu funksiya yordamida berilgan X uchun N ning 5 ta turli qiymatlaridagi X ning darajalari hisoblansin.
- Butun tipga tegishli N -tartibli Fibonachchi sonlarini hisoblaydigan (N -butun son) rekursiv **Fib1(N)** funksiyasi tasvirlansin. Bu funksiya yordamida turli 5 ta butun son uchun Fibonachchi sonlari hisoblansin, har bir N uchun **Fib1** funksiyasini chaqirilishlar soni ham aniqlansin.
- N ta elementli Fibonachchi sonlari ketma-ketligi hisoblaydigan butun tipli **Fib2** protsedurasi tasvirlangan. Bunda $N \leq 20$. yordamchi massiv tuzilsin va unga hisoblangan fibonachi sonlari yozilib, **Fib2** funksiyasi bajarilayotganda murojaat etilsin. (Bu yerda N yigirmadan oshmaydigan butun son). **Fib2** funksiyasi yordamida $N=5$ ta har xil qiymatlari uchun Fibonachchi sonlarini hisoblang va hisoblashda **Fib 2** funksiyasini chaqirishlar soni **Fib1** funksiyasini chaqirishlar soni bilan taqqoslang.
- Butun tipli $C(N,K)$ ($C(N,0)=C(N,N)=1$, $C(N,K)=C(N-1,K)+C(N-1, K-1)$ $0 < K < N$ bo'lsa) ifodani hisoblovchi rekursiv **Combin1(N,K)** funksiyasi tasvirlansin. $N > 0$, $0 \leq K \leq N$ bo'lgan holda, berilgan N sonida K ning turli 3 ta qiymati uchun $C(N,K)$ soni hisoblansin va $C(N,K)$ ni hisoblashda **Combin1** rekursiv funksiyani

chaqiruvlar soni ham aniqlansin.

- 7 Butun tipli $C(N,K)$ ($C(N,0)=C(N,N)=1$, $C(N,K)=C(N-1,K)+C(N-1,K-1)$ $0<K<N$ bo'lsa) ifodani hisoblaydigan parametrlari butun tipga tegishli rekursiv **Combin2**(N,K) funksiya tasvirlansin. $C(N,K)$ ning hisoblagan qiymatlarini o'zida saqllovchi ikki o'lchovli massiv tuzilsin. **Combin2** da bu massivdan foydalanilsin. Ushbu funksiya yordamida berilgan N ning qiymati uchun K ning 5 ta har xil qiymatlaridagi $C(N,K)$ ning qiymati hisoblansin, har bir hisoblash jarayonida hosil bo'lgan qiymatlar 2 o'lchovli massivda tasvirlansin, $N=20$ dan oshmagan qiymatida **Combin2** funksiyasining chaqiruvlar soni **Combin1** funksiyasining chaqiruvlar soni bilan taqqoslansin.
- 8 Haqiqiy tipli K tartibli ildizni hisoblaydigan ($Y_0=1$, $Y_{N+1}=Y_N - (Y_N - X/(Y_N)^{K-1})/K$) rekursiv **RootK**(x, K, N) funksiyasi tasvirlansin. Bu erda Y_N **RootK**(X,K,N) funksiyadagi fikserlangan X va K ni bildiradi. Funksiya parametrlari: $X(X>0)$ -haqiqiy son $K(K>1)$ va $N(N>0)$ -butun sonlar. **RootK** funksiyasi yordamida berilgan X soni uchun uning K -tartibli ildizini N ning 6 ta turli qiymatlarida hisoblansin.
- 9 Butun tipga tegishli 2 ta butun sonning umumiy bo'luvchisini
- ▲ U Evklid algoritmi yordamida topadigan ($NOD(A,B)=NOD(B,A \bmod B)$, agar $B \neq 0$; $NOD(A,0)=A$) rekursiv **NOD**(A,B) funksiyasi tasvirlansin. Agar A,B,C,D musbat butun sonlar berilgan bo'lsa **NOD** funksiyasidan foydalanib **NOD** (A,B), **NOD** (A,C), **NOD** (A,D) ni hisoblansin.
- 10 Butun tipli, K sonining raqamlari yig'indisini hisoblaydigan **DigitSum**(K) rekursiv funksiyasi tasvirlansin, raqamlar yig'indisini hisoblashda sikl operatorlaridan foydalanilmasin. Bu funksiya yordamida turli 5 ta sonning raqamlari yig'indisini hisoblash amalga oshirilsin.
- 11 Sikl operatoridan foydalanmasdan butun tipga tegishli $N(1 \leq N \leq 10)$ ta elementga ega A massivdagi eng katta elementni topuvchi rekursiv **MaxElem**(A,N) funksiyasi tasvirlansin. Ushbu funksiya yordamida A,B,C masivlardagi eng katta sonlar topilsin.
- 12 S satrdagi berilgan sonning raqamlari sonini topadigan butun tipli rekursiv **Digit Count**(S) funksiyasi tasvirlansin. Hisoblash jarayonida sikl operatoridan foydalanilmasin. Berilgan 5 ta har xil sonlardan iborat satrlardagi son raqamlari yig'indisi tasvirlangan funksiyadan foydalanib hisoblansin.
- 13 **Polindrom** sonini aniqlaydigan mantiqiy tipga tegishli rekursiv **Polindrom**(S) funksiyasi tasvirlansin. Agar S son palindrom bo'lsa funksiya **TRUE**, aks holda **FALSE** qiymat qaytarsin. (**Polindrom** son bu-chapdan o'ngga va o'ngdan chapga bir xil o'qiladigan sondir.) Berilgan 5 ta son uchun **Polindrom** funksiyasining qaytaradigan qiymatlari chiqarilsin.

10.2.Ifodalar tahlili.

Bu punktning barcha masalalarida joylashgan manbaa satrlar bo`sh joylars aniqlangan ifodalar hisoblanadi. Masalalarni bajarishda sikl operatorid foydalanish tavsiya etilmaydi.

- 14 *S* satr ko`rinishda berilgan
 $\langle ifoda \rangle ::= \langle raqam \rangle / \langle ifoda \rangle + \langle raqam \rangle /$
 $\langle ifoda \rangle - \langle raqam \rangle$ butun sonli ifodaning qiymati hisoblansin.
- 15 *S* satr ko`rinishda berilgan
 $\langle ifoda \rangle ::= \langle had \rangle / \langle ifoda \rangle + \langle had \rangle /$
 $\langle ifoda \rangle - \langle had \rangle$
 $\langle had \rangle ::= \langle raqam \rangle / \langle had \rangle * \langle raqam \rangle$ butun sonli ifodaning qiymati hisoblansin.
- 16 *S* satr ko`rinishda berilgan
 $\langle ifoda \rangle ::= \langle had \rangle / \langle ifoda \rangle + \langle had \rangle /$
 $\langle ifoda \rangle - \langle had \rangle$
 $\langle had \rangle ::= \langle element \rangle / \langle had \rangle * \langle element \rangle$
 $\langle element \rangle ::= \langle raqam \rangle / (\langle ifoda \rangle)$ butun sonli ifodaning qiymati hisoblansin.
- 17 *S* satr ko`rinishda berilgan
 $\langle ifoda \rangle ::= \langle raqam \rangle /$
 $(\langle ifoda \rangle \langle belgi \rangle \langle ifoda \rangle)$
 $\langle belgi \rangle ::= + | - | *$ butun sonli ifodaning qiymati hisoblansin.
- 18 Bo`sh bo`lmagan *S* satrdagi ifodaning to`g`riligi tekshirilsin. (Ifoda 17-ko`rinishdagi qoida asosida aniqlanadi). Agar ifoda to`g`ri tuzilgan bo`lsa **TRUE**, aks holda **FALSE** qiymat chop etilsin.
- 19 Bo`sh bo`lmagan *S* satrdagi ifodaning to`g`riligi tekshirilsin. (Ifoda 17-ko`rinishdagi qoida asosida aniqlanadi). Agar ifoda to`g`ri tuzilgan bo`lsa 0, aks holda *S* satrdagi 1-uchragan xato belgi yoki bo`sh joyning nomeri chop etilsin.
- 20 *S* satr ko`rinishda berilgan
 $\langle ifoda \rangle ::= \langle raqam \rangle | M(\langle ifoda \rangle, \langle ifoda \rangle) |$
 $m(\langle ifoda \rangle, \langle ifoda \rangle)$ ko`rinishda berilgan. (*M*-katta parametрни, *m* esa kichkina parametрни qaytaradi). Butun sonli ifodaning qiymati chop etilsin.
- 21 *S* satr ko`rinishda berilgan
 $\langle ifoda \rangle ::= T | F | And(\langle ifoda \rangle, \langle ifoda \rangle) |$
 $Or(\langle ifoda \rangle, \langle ifoda \rangle)$ ko`rinishda berilgan.
(**"T"**-**TRUE**, **"F"**-**FALSE**) mantiqiy ifodaning qiymati chop etilsin.
- 22 *S* satr ko`rinishda berilgan
 $\langle ifoda \rangle ::= \langle raqam \rangle | M(\langle parametr \rangle) | m(\langle parametrlar \rangle)$
 $\langle parametrlar \rangle ::= \langle ifoda \rangle | \langle ifoda \rangle, \langle parametrlar \rangle$
ko`rinishda berilgan. (*M*-katta parametрни, *m* esa kichik parametрни qaytaradi). Butun sonli ifodaning qiymati chop etilsin.
- 23 *S* satr ko`rinishda berilgan

$\langle \text{ifoda} \rangle ::= T|F|And(\langle \text{parametrlar} \rangle) | Or(\langle \text{parametrlar} \rangle)$
 $\langle \text{parametrlar} \rangle ::= \langle \text{ifoda} \rangle | \langle \text{ifoda} \rangle, \quad \langle \text{parametrlar} \rangle$

ko`rinishda berilgan. ("*T*"-*TRUE*,

"*F*"-*FALSE*) mantiqiy ifodaning qiymati chop etilsin.

24 *S* satr ko`rinishda berilgan

$\langle \text{ifoda} \rangle ::= T|F|And(\langle \text{parametrlar} \rangle)|$

$Or(\langle \text{parametrlar} \rangle)|Not(\langle \text{ifoda} \rangle)$

$\langle \text{parametrlar} \rangle ::= \langle \text{ifoda} \rangle | \langle \text{ifoda} \rangle, \langle \text{parametrlar} \rangle$ ko`rinishda

berilgan. ("*T*"-*TRUE*,

"*F*"-*FALSE*) mantiqiy ifodaning qiymati chop etilsin.

10.3.Qaytish yordamida birma-bir tekshirish

25 *N* sathli daraxt berilgan bo`lib, har bir ichki qirralar (*K*<10) bevosita bog`langan 1 dan *K* gacha bo`lgan yaproqlardan iborat. Daraxt ildizi 0 hisoblanadi, boshlang`ich ildizdan oxirgi yaproqlargacha bo`gan barcha yo`llarni berilgan nomdagi matn fayliga boshlang`ich "eng chapdagi" yo`ldan "eng o`ngdagi" yo`lgacha bo`lagn (o`zlari ham)barcha yo`llar matn fayliga yozilsin.

26 *N* sathli daraxt berilgan bo`lib, har bir ichki qirralar (*K*<10) bevosita bog`langan dan *K* gacha bo`lgan yaproqlardan iborat. Daraxt ildizi 0 hisoblanadi, barcha yo`llar quyida berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi bo`lsa: yo`ldagi hech bir qo`shni elementlar bir xil nomerlanmagan (yo`llar tartibi 25-misoldagi kabi bo`lsa). Bu daraxtdagi barcha yo`llar berilgan nomli matn fayliga yozilsin.

27 *N* (*N*-juft) sathli daraxt berilgan bo`lib, uning har bir shoxchasiga 2 tadan qirra bog`langan: *A*=1 og`irlik bilan va *B*=-1 og`irlik bilan, daraxt ildizi *C*=0 og`irlik bilan berilgan. Ildizdan yaproqlargacha bo`lgan va quyidagi shartni qanoatlantiradigan barcha yo`llar va elementlari yig`indisi 0 og`irlikka teng bo`lgan yo`llar berilgan nomdagi faylga yozilsin. Daraxtni tekshirish tartibi 25-misoldagi kabi.

28 *N* sathli 27-misoldagi ko`rinishga ega daraxt berilgan. Daraxtning ixtiyoriy berilgan, elementlari yig`indisining og`irligi manfiy bo`lmagan kesmalari berilgannomdagi tashqi faylga yozilsin.(Daraxtni tekshirish tartibi 25-misoldagi kabi.)

29 *N* sathli 3 talik qirralarga ega, hamda *A* elementi 1, *B* elementi 0 va *C* elementi -1 og`irlikka teng, ildizi *D*, 0 og`irlikka teng bo`lgan daraxt berilgan. Barcha elementlari yig`indisi 0 ga teng bo`lgan yo`llar va musbat bo`lmagan yo`llarning bo`lagi berilgan nomdagi faylga yozilsin. (Daraxtni tekshirish tartibi 25-misoldagi kabi.)

30 *N* sathli (29-masaladagi kabi) daraxt berilgan. Ildizdan yaproqlargacha bo`lgan yo`lning hech bir qo`shni elementi bir xil harfga ega bo`lmagan va elementlari yig`indisi 0 ga teng bo`lganlari berilgan matn fayliga yozilsin. (Daraxtni tekshirish tartibi 25-

misoldagi kabi.)

XI bob. Ma'lumotlarning dinamik strukturasi.

2– masala uchun programma
Borland delphi tilida
<pre>program dinamic2; {\$APPTYPE CONSOLE} uses SysUtils; type // TNode ko'satkich tipli PNode tipni e'lon qilish PNode = ^TNode; //TNode yozuv tipini elon qilish TNode = record Data: integer; // Data maydonini e'lon qilish Next: PNode; // Next maydonini e'lon qilish end; var p1,p:PNode; K:integer; begin // Zanjirning birinchi elementi uchun xotiradan joy ajratamiz va unga qiymat beramiz New(p); p^.Data :=0; p1:=p; k:=0; // zanjirning qarayotgan keyingi elementlariga qiymatlar kiritamiz repeat inc(k); NEW(P1^.Next); P1:=P1^.Next; P1^.Data:=k*k; until (k>=10); // Endi ushbu zanjir uchun masala shartida kursatilgan ishlarni bajaramiz k:=0; //ya'na birinchi elementni joriy element sifatida olamiz P1:=P; WriteLn('Zanjir quyidagi qiymatlardan tashkil topgan:');</pre>

```

// Toki zanjir oxiriga borilmaguncha
while P1 <> Nil
do begin
// K qiymatini 1 ga oshiramiz
    Inc(k);
// Joriy elementdagi qiymatni bosmaymiz
    Writeln(k, '-element: ', P1^.Data);
// va navbatdagi elementga utamiz
    P1:=P1^.Next;
end;
// Tsikldan sung elementlar sonini va oxirgi element adresini
bosmaymiz
    Writeln('Jami qiymatlar soni: ', k);
    Writeln('Oxirgi qiymat adresi (10 lik sanoq sistemasida): ',
LongInt(P1));
    readln;
    readln;
end.

```

12– masala uchun programma

```

program dinamic12;

{$APPTYPE CONSOLE}

uses
    SysUtils;

type
// TNode ko'satkich tipli PNode tipni e'lon qilish
PNode = ^TNode;
//TNode yozuv tipini elon qilish
TNode = record
    Data: integer; // Data maydonini e'lon qilish
    Next: PNode; // Next maydonini e'lon qilish
end;
TStack=record
    Top:PNode;
end;

var
    K,k1,i:integer;
    p1,p:TStack;

function pop( var s:TStack):integer;
var
    Temp:TStack;

```

```

begin
pop:=s.Top^.Data;
Temp:=s;
  s.top:=s.Top^.Next;
  Dispose(Temp.top);
  end;
begin
// Zanjirning birinchi elementi uchun xotiradan joy ajratamiz va unga
qiymat beramiz
  New(p.top);
  p.top^.Data :=49;
  p1:=p;
  k:=0;
  // zanjirning qaralayotgan keyingi elementlariga qiymatlar kiritamiz
  repeat
  inc(k);
  NEW(P1.top^.Next);
  P1.top:=P1.top^.Next;
  P1.top^.Data:=k*k;
  until (k>=6);
// Endi ushbu zanjir uchun masala shartida kursatilgan ishlarni
bajaramiz
  k:=0;
  //ya'na birinchi elementni joriy element sifatida olamiz
  P1:=P;
  // Toki zanjir oxiriga borilmaguncha

for i:=1 to 5 do begin

  writeln('styokdan ',i,' chi element uchirildi');
  writeln('uchirilgan element qiymati ', pop(p1));
  end;
  WriteLn('Zanjir quyidagi qiymatlardan tashkil topgan:');
  while P1.top <> Nil
  do begin
// K kiymatini 1 ga oshiramiz
  Inc(k);
// Joriy elementdagi kiymatni bosmalaymiz
  Writeln(k, '-elemant: ', P1.top^.Data);
// va navbatdagi elementga utamiz
  P1.top:=P1.top^.Next;
  end;

// Tsikldan sung elementlar sonini va oxirgi element adresini
bosmalaymiz

```

```

WriteLn('Jami qiymatlar soni: ', k);
WriteLn('Oxirgi qiymat adresi (10 lik sanoq sistemasida): ',
LongInt(P1.top));
readln;
readln;
end.

```

№

Masala

1. **Data**(butun tipli) va **Next**(**TNode** ko`rsatkichli - **PNode** tipli) maydonlarini o`zida saqlovchi **TNode** yozuv tipli **P₁** adres berilgan. Bu yozuv shu tipdagi keyingi adres bilan **Next** maydoni orqali bog`lanadi. **P<sub>2</sub>** ni navbatdagi yozuv deb hisoblab, har ikkala adres uchun ham **Data** maydonidagi ma`lumotlar chiqarilsin.
2. **TNode** tipli **P₁** adres berilgan. Bu yozuv keyingi yozuvlar bilan **Next** maydoni orqali bog`lanadi, qachonki **Next** maydoni **NIL** ga teng bo`lguncha bog`lanishlar davom etadi(bu holat yozuvlar zanjirini tashkil etish imkoniyatini tug`diradi). Zanjirning barcha elementlari uchun **Data** maydonidagi qiymatlar(zanjir uzunligi deganda uning elementlar soni tushunilsin) va oxirgi element adresi ekranga chiqarilsin.

11.1.Styok

TNode “**Styok**” strukturali 3-13 masalalarda bir-birlari bilan bog`langan yozuv tipli zanjirsimon modellar tuziladi. Zanjirning oxirgi elementini **Next** maydoni **NIL** ga teng deb hisoblanadi. Styokning qirrasini zanjirning birinchi elementining hisoblanadi. Styokka murojaat uning qirrasini yordamida amalgam oshiriladi. (Bo`sh styok deganda berilgan ko`rsatkichning holati **NIL** ga teng bo`lgan hol tushuniladi). Styok qiymati deganda uning **Data** maydonidagi element tushuniladi.

3. **D** soni va styok qirrasining **P₁** ko`rsatkichi berilgan, **D** ning qiymati va **P<sub>2</sub>** adresni qo`shish yordamida styokning yangi qirrasini hosil qilinsin.
4. **N(N>0)** soni va **N** ta sondan iborat nabor berilgan. Berilgan sonlar yordamida styok tashkil etilsin (oxirgi son styok uchi hisoblanadi) va styok qirrasini ko`rsatkichi ekranga chiqarilsin.
5. Bo`sh bo`lmagan styokda **P₁** ko`rsatkich berilgan. Styokning 1-elementini chiqarib, chiqarilgan element qiymati **D<sub>1</sub>** hamda styokning yangi uchining **P<sub>2</sub>** adresi ekranga chiqarilsin. Agar styokdan ma`lumot chiqarilgandan keyin bo`sh qolsa **P<sub>2</sub>** ning qiymati **NIL** deb olinsin. Styokdan elementlarni chiqargandan keyin bu element band qilgan xotira bo`shatilsin.
6. 10 ta dan kam bo`lmagan elementni o`zida saqlovchi styokning **P₁** ko`rsatkichli qirrasini berilgan. Styokning dastlabki 9 ta elementi chiqarilsin. Chiqarilgan va styokning yangi qirrasining adresi

- ekranga chiqarilsin. Styokdan ma'lumotlar chiqarilganda ularning xotiradan egallab turgan joylari bo'shatilsin.
- 7 Styokning qirrasidagi P_1 ko'rsatkich berilgan (Agar styok bo'sh bo'lsa, $P_1 = NIL$). Styokning barcha elementlarini undan chiqarib, chiqarilgan elementlar qiymatlari ekranga chiqarilsin. Bundan tashqari styokdan chiqarilayotgan elementlar soni N ham ekranga chiqarilsin. Styokdan ma'lumotlar chiqarilganda ularning xotiradan egallab turgan joylari bo'shatilsin.
 - 8 Bo'sh bo'lmagan 2 ta styoklarning qirralari P_1 va P_2 ko'rsatkichlar hisoblanadi. 1-styokning barcha elementlari 2-styokning elementlari bilan almashtirilsin, (Natija: 1-styokdagi elementlar joylashuvi 2-styokdagiga nisbatan teskari holatda bo'ladi.) va 2-styokning yangi qirrasining adresi chiqarilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish operatsiyalaridan foydalanilmasin.
 - 9 Bo'sh bo'lmagan 2 ta styoklarning qirralari P_1 va P_2 ko'rsatkichlar hisoblanadi. 1-styokning qirrasining elementi juft bo'lmay qolguncha undagi elementlarni 2-styokka ko'chirib o'tkazing. (1-styokdagi elementlar 2-styokka o'tkazilishi natijasida ular 2-styokda teskari tartibda joylashadi). Agar birinchi styokda juft bo'lmagan element yo'q bo'lsa, styokdagi barcha elementlar 2-styokka ko'chirilsin. 1- va 2- styoklarning yangi qirralarining adreslari (agar 1-styok bo'sh bo'lsa NIL chiqarilsin) ekranga chiqarilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish operatsiyalaridan foydalanilmasin.
 - 10 Bo'sh bo'lmagan styokning qirrasidagi P_1 ko'rsatkich berilgan. Shunday 2 ta yangi styok hosil qilingki, ularning birinchisida berilgan styokning juft qiymatli elementlarini barchasi, ikkinchisida qolgan barcha elementlar joylashsin. (Yangi hosil qilingan styoklarda elementlar berilgan styokdagiga nisbatan teskari tartibda joylashadi va ayrim hollarda styoklarning biri bo'sh qolishi ham mumkin.) Hosil qilingan styoklar qirralarining adresi ekranga chiqarilsin (Bo'sh styok adresi o'rniga NIL chiqarilsin.). Xotirani ajratish va bo'shatish operatsiyalaridan foydalanilmasin.
 - 11 Bo'sh bo'lmagan styokning qirrasidagi P_1 ko'rsatkich berilgan. (Agar styok bo'sh bo'lsa, $P_1 = NIL$.) N soni ($N > 0$) va N ta sondan iborat nabor berilgan. $PNode$ tipli, Top maydonga ega, $TStack$ yozuv tipi va styokka D qiymatli yangi S elementni qo'shuvchi $Push(S, D)$ protsedurasi tasvirlansin. (S – $Tstack$ tipli kiruvchi va chiquvchi parametr, D esa butun tipli kiruvchi parametr). $Push$ prosedurasi yordamida mavjud styokka berilgan sonlar qo'shilsin va (oxirgi son styok qirrasiga bo'ladi) Styokning yangi qirrasining adresi ekranga chiqarilsin.
 - 12 5 tadan kam bo'lmagan elementi bor styok qirrasining P_1 adresi berilgan. $TStack$ tipidan foydalanib, styokning 1-yuqori S elementini oladigan, uning qiymatini qaytaradigan va ma'lumotni olgandan keyin uning xotiradagi egallagan joyini bo'shatadigan (S

kiruvchi va chiquvchi **TStack** tipli parametr) butun tipli **Pop(S)** funksiyasi tasvirlansin. Bu funksiya yordamida styokdan 5 ta element olinsin va ularning qiymati ekranga chiqarilsin bundan tashqari styokning qirrasining yangi adresi ham ekranga chiqarilsin. (Agar styok bo'sh qolgan bo'lsa, $P_1 = \text{NIL}$ deb hisoblansin.).

- 13 Styok qirrasidagi P_1 ko'rsatkich berilgan. **TStack** tipidan foydalanib, mantiqiy (agar **S** styok bo'sh bo'lsa true, aks holda false qiymat qaytaruvchi) **StacksEmpty(S)** va butun tipli (**S** styokning qirrasidagi qiymatni styokdan olib tashlamasdan qaytaruvchi) **Peek(S)** funksiyalari tasvirlansin. Har ikkala funksiyada ham kiruvchi **S** parament **TStack** tipli bo'lsin. Har ikkala funksiya va **PoP** funksiyasidan foydalanib mavjud styokdan 5 ta element olinsin va elementlarning qiymatlari ekranga chiqarilsin. Bulardan tashqari agar natijaviy styok bo'sh bo'lmasa **StacksEmpty** funksiyasidan foydalanib, uning yangi qirrasining adresi ekranga chiqarilsin.

11.2."Navbat" lar

14-28 topshiriqlarda **TNode** yozuv tipining zanjirsimon strukturasi bo'yicha modellashtirilgan navbatlar qaraladi. (2-topshiriqqa qaralsin.) Yozuvning oxirgi elementida **NEXT** maydoni **NIL** ga teng bo'ladi. Zanjirning boshi navbatning birinchi elementi, oxiri esa navbatning oxirgi elementi hisoblanadi. "**Navbat**" oxiriga tezlik bilan yangi ma'lumot qo'shish imkoniyatini berish uchun: ma'lumotni qulay holda saqlash, navbat boshi va oxirini to'g'ri ko'rsatish kerak. Bo'sh navbatning boshi va oxiri 0 deb qaraladi.

- 14 10 ta sondan iborat nabor berilgan. Nabordagi sonlarni ko'rsatilgan tartibda saqlovchi navbat hosil qilinib, (birinchi son "navbat"ning boshiga, oxirgi son "navbat" oxiriga joylashadi) navbatning boshlang'ich va oxirgi (P_1, P_2) o'rinlaridagi sonlar chiqarilsin.
- 15 10 ta sondan iborat nabor berilgan. Ikkita "navbat" hosil qilinsin: birinchisida berilgan nabordagi toq nomerdagi sonlar, ikkinchisida berilgan nabordagi juft nomerdagi sonlar. "Navbat" lardagi sonlarning joylashish tartibi berilgan naborlardagi kabi bo'lsin. Dastlab birinchi "navbat" dagi so'ngra ikkinchi "navbat" dagi birinchi va oxirgi ko'rsatkichlar chiqarilsin.
- 16 10 ta sondan iborat nabor berilgan. Ikkita "navbat" hosil qilinsin: birinchisida berilgan nabordagi barcha toq sonlar, ikkinchisida esa berilgan nabordagi barcha juft sonlar (har bir "navbat" dagi sonlarning joylashish tartibi berilgan nabordagi kabi bo'lsin.) Dastlab birinchi "navbat" dagi so'ngra ikkinchi "navbat" dagi birinchi va oxirgi ko'rsatkichlar chiqarilsin (ba'zi hollarda navbatlardan biri bo'sh qolishi mumkin. U holda bo'sh navbat qiymati sifatida NIL chiqariladi).
- 17 **D** soni hamda "navbat" ning boshi va oxirini ko'rsatuvchi P_1, P_2 ko'rsatkichlar berilgan (agar "navbat" bo'sh bo'lsa $P_1 = P_2 = \text{NIL}$

- bo`ladi). "Navbat" oxiriga  $D$  soni qo`shilsin va P_1, P_2 larning yangi adreslari chiqarilsin.
- 18 D soni hamda "navbat" ning boshi va oxirini ko`rsatuvchi  $P_1, P_2$  ko`rsatkichlar berilgan. "Navbat" ning oxiriga D soni qo`shilsin va boshidan bitta element olib tashlansin. "Navbat"ning olingan elementi hamda yangi boshlang`ich P_1 va oxirgi P_2 adreslari chiqarilsin.
 - 19 $N(N>0)$ soni hamda bo`sh bo`lmagan "navbat" ning boshi va oxirini ko`rsatuvchi  $P_1, P_2$  ko`rsatkichlar berilgan. "Navbat" dan dastlabki N ta elementni chiqarib, chiqarilgan elementlari qiymatlari hamda "navbat" ning yangi bosh va oxirining P_1, P_2 ko`rsatkichlari chiqarilsin.(agar "navbat" bo`sh bo`lsa 2 marta  $NIL$  chiqarilsin, agar "navbat" da  $N$  tadan kam element bo`lsa undagi barcha elementlar chiqarilsin.) Elementlar navbatdan chiqarilgandan keyin ular egallab turgan xotira bo`lagi bo`shatilsin.
 - 20 Bo`sh bo`lmagan "navbat" ning boshi P_1 va oxiri P_2 berilgan. "Navbat"ning boshlang`ich elementi juft bo`lmaguncha undan elementlar chiqarilsin (agar "navbat" o`zida juft sonni saqlamasa uning barcha elementlari chiqarilsin), "navbat" ning yangi boshi  $P_1$  va oxiri  $P_2$  chiqarilsin (bo`sh "navbat" uchun ikkita NIL qiymati chiqarilsin). Elementlar "navbat" dan chiqarilgandan so`ng ular egallab turgan xotira bo`lagi bo`shatilsin.
 - 21 Birinchisining boshlang`ich va oxirgi adreslari  $P_1, P_2$  bo`lgan, ikkinchisiniki P_3, P_4 bo`lgan ikkita "navbat" berilgan. (agar navbat bo`sh bo`lsa, uning adreslari qiymati  $NIL$  bo`ladi). Birinchi "navbat"ning barcha elementlari (birinchi oxirgi elementlarining tartibini o`zgartirmasdan) ikkinchi "navbat" ning oxiridan qo`shilsin hamda 2-"navbat" ning hosil bo`lgan yangi boshlang`ich va oxirgi adreslari chop etilsin. Xotirani ajratish va bo`shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 22 N soni hamda birinchisining boshlang`ich va oxirgi adreslari  $P_1, P_2$  va ikkinchisiniki  $P_3, P_4$  bo`lgan ikkita "navbat" berilgan. Birinchi "navbat" ning boshlang`ich  $N$  ta elementini 2-navbat oxiriga o`tkazilsin. (Agar birinchi navbatda elementlar soni N tadan kam bo`lsa uning barcha elementlari o`tkazilsin.) Dastlab birinchi navbatning, so`ngra 2-"navbat"ning yangi boshlang`ich va oxirgi adreslari chiqarilsin(bo`sh "navbat" uchun ikkita  $NIL$  qiymati chiqarilsin). Xotirani ajratish va bo`shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 23 Birinchisining boshlang`ich va oxirgi adreslari  $P_1, P_2$  va ikkinchisiniki  $P_3, P_4$  bo`lgan bo`sh bo`lmagan "navbat"lar berilgan. Birinchi "navbat" ning boshlang`ich elementi juft bo`lmaguncha uning elementlari 2- "navbat" oxiriga o`tkazilsin(agar birinchi "navbat" da juft element yo`q bo`lsa uning barcha elementlari ikkinchi "navbat" oxiriga o`tadi). Xotirani ajratish va bo`shatish

- amallaridan foydalanilmasin.
- 24 Birinchisining boshlang'ich va oxirgi adreslari P_1 , P_2 va ikkinchisiniki P_3 , P_4 bo'lgan bo'sh bo'lmagan "navbat"lar berilgan. "Navbat" lar bir xil miqdordagi elementlarni saqlaydi. "Navbat" lardagi elementlarni bitta "navbat"ga galma-gal olib joylashtirilsin(birinchi element birinchi navbatdan, ikkinchi element ikkinchi navbatdan, uchinchi element birinchi navbatdan va hokazo). Hosil qilingan "navbat" ning boshlang'ich va oxirgi ko'rsatkichlari chiqarilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 25 Birinchisining boshlang'ich va oxirgi adreslari P_1 , P_2 va ikkinchisiniki P_3 , P_4 bo'lgan bo'sh bo'lmagan "navbat"lar berilgan. "Navbat" lar bir xil miqdordagi elementlarni saqlaydi. Har bir "navbat" dagi elementlar o'sish tartibida joylashgan (tartib "navbat" ning boshidan oxiriga qarab yo'naltirilgan). "Navbat" lardagi elementlarni bitta navbatga (elementlarning o'sish tartibini saqlagan holda) birlashtirilsin. Hosil qilingan "navbat" ning boshlang'ich va oxirgi ko'rsatkichlari chiqarilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin, "**Data**" maydoni o'zgartirilmasin.
 - 26 "Navbat" ning boshi va oxirini bildiruvchi P_1 , P_2 ko'rsatkichlari berilgan, (agar "navbat" bo'sh bo'lsa, $P_1=P_2=NIL$) hamda N soni va N ta sondan iborat nabor ham berilgan. **PNode** tipli "navbat" ning boshini bildiruvchi **Head** oxirini bildiruvchi **Tail** maydonlarga ega **TQueue** yozuv tipi va qaysiki "navbat"ning oxirgi Q elementidan keyin yangi D qiymatli elementni qo'shadigan **Enqueue(Q,D)** protsedurasi tasvirlansin. (**Q-TQueue** tipli kiruvchi va chiquvchi parametr, D -butun tipli kiruvchi parametr). Bu protseduradan foydalanib berilgan navbatning oxiriga ko'rsatilgan son qo'shilib, "navbat" ning yangi boshlang'ich va oxirgi adreslari chiqarilsin.
 - 27 "Navbat" ning boshi va oxirini ko'rsatuvchi P_1 va P_2 ko'rsatkichlari bilan o'zida 5 tadan kam bo'lmagan elementi bor navbat berilgan. **TQueue** tipidan foydalanib berilgan "navbat" dan birinchi elementni chiqaradigan va u egallab turgan xotirani bo'shatuvchi qiymat sifatida chiqarilgan elementni qaytaradigan butun tipli **Dequeue(Q)** funksiyasi tasvirlansin. (Q **TQueue** tipli kiruvchi va chiquvchi parametr). Bu funksiyadan foydalanib berilgan navbatning boshidan 5 ta element chiqarilsin va bu elementlarning qiymati chop etilsin hamda natijaviy navbatning boshlang'ich va oxirgi adreslari chop etilsin (natijaviy "navbat" bo'sh bo'lsa **NIL** chop etilsin).
 - 28 "Navbat" ning boshi va oxirini ko'rsatuvchi P_1 , P_2 ko'rsatkichlari berilgan. **T Queue** tipidan foydalanib agar "navbat" Q bo'sh bo'lsa **TRUE**, aks holda **FALSE** qiymat qaytaruvchi mantiqiy tipli **QueueIsEmpty(Q)** funksiyasi tasvirlansin. (Q **TQueue** tipli kiruvchi parametr.) Bu funksiyadan foydalanib 27-topshiriqni bajarishda "navbat" ning bo'shligi tekshirib turilsin. "Navbat" dan 5 ta element

chiqarilsin va har bir element chiqarilgandan keyingi **QueueIsEmpty** funksiyasining qiymati hamda natijaviy navbatning boshlang'ich va oxirgi adreslari chiqarilsin.

11.3. Ikki bog'lamli "ro'yxat"

- 29 Maydonlari (butun tipli) **Data** hamda (**TNode** ko'rsatkichli **PNode** tipga tegishli) **Prev** va **Next** bo'lgan **TNode** yozuv tipli **P₂** adres berilgan. Bu yozuv **Prev** va **Next** maydonlari orqali o'ziga o'xshagan tipli oldingi va keyingi yozuvlar bilan bog'langan. **Data** maydoninig oldingi va keyingi yozuvlardagi qiymatlari hamda oldingi va keyingi yozuvlardagi **P₁**, **P₃** adreslar chop etilsin.
- 30 **Next** maydoni bilan keyingi yozuvga bog'langan **Tnode** tipli **P₁** ko'rsatkich berilgan. **TNode** yozuvidagi **Prev** maydoni nafaqat yozuvning (bir bog'lamli) keyingi yozuv bilan balki (ikki bog'lamli) oldingi yozuv bilan ham bog'lanishiga imkon beradi. **Prev** maydoninig birinchi elementida **NIL** turadi. Tasvirlangan zanjirdagi oxirgi element qiymati chop etilsin.
- 31 Bo'sh bo'lmagan ikki bog'lamli "ro'yxat" ning elementlaridan biri bo'lgan **P₀** ko'rsatkich berilgan. "Ro'yxat" elementlari soni **N** hamda "ro'yxat" ning boshlang'ich **P₁** va oxirgi **P₂** ko'rsatkichlari chop etilsin.
- 32 **D₁** va **D₂** sonlari hamda bo'sh bo'lmagan ikki bog'lamli "ro'yxat" ning elementlaridan biri **P₀** berilgan. "Ro'yxat" ning boshidagi **P₁** va oxiridagi **P₂** ko'rsatkichlari chop etilsin.
- 33 **D** soni hamda bo'sh bo'lmagan ikki bog'lamli "ro'yxat" elementlaridan biri bo'lgan **P** ko'rsatkich berilgan. "Ro'yxat" ning berilgan elementidan oldin yangi **D** element qo'yilsin va "ro'yxat"ga qo'shilgan elementning ko'rsatkichi chop etilsin.
- 34 **D** soni hamda bo'sh bo'lmagan ikki bog'lamli "ro'yxat" elementlaridan biri bo'lgan **P** ko'rsatkich berilgan. "Ro'yxat" ning berilgan elementidan keyin yangi **D** element qo'yilsin va "ro'yxat"ga qo'shilgan elementning ko'rsatkichi chop etilsin.
- 35 2 tadan kam bo'lmagan elementni saqlaydigan ikki bog'lamli "ro'yxat" ning boshlang'ich va oxirgi **P₁**, **P₂** ko'rsatkichlari berilgan. "Ro'yxat" ning birinchi va oxirgi elementlari ikkilantirilsin (yangi qo'shiladigan element mavjudlaridan oldin qo'shiladi) va tasvirlangan "ro'yxat" ning birinchi ko'rsatkichi chop etilsin.
- 36 2 tadan kam bo'lmagan elementni saqlaydigan ikki bog'lamli "ro'yxat" ning boshlang'ich va oxirgi **P₁**, **P₂** ko'rsatkichlari berilgan. "Ro'yxat" ning birinchi va oxirgi elementlari ikkilantirilsin (yangi qo'shiladigan element mavjudlaridan keyin qo'shiladi) va tasvirlangan "ro'yxat" ning oxirgi ko'rsatkichi chop etilsin.
- 37 Ikki bog'lamli bo'sh bo'lmagan "ro'yxat" ning birinchi elementi **P₁** berilgan. "Ro'yxat" ning barcha toq nomerdagi elementlari

- ikkilantirilsin(yangi element mavjudlaridan oldin qo`shiladi) va hosil bo`lgan "ro`yxat" ning birinchi elementining ko`rsatkichi chop etilsin.
- 38 Ikki bog`lamli bo`sh bo`lmagan "ro`yxat" ning birinchi elementi P_1 berilgan. "Ro`yxat" ning barcha toq nomerdagi elementlari ikkilantirilsin(yangi element mavjudlaridan keyin qo`shiladi) va hosil bo`lgan "ro`yxat" ning oxirgi elementining ko`rsatkichi chop etilsin.
- 39 Ikki bog`lamli bo`sh bo`lmagan "ro`yxat" ning birinchi elementi P_1 berilgan. "Ro`yxat" ning barcha toq qiymatdagi elementlari ikkilantirilsin(yangi element mavjudlaridan oldin qo`shiladi) va hosil bo`lgan "ro`yxat" ning birinchi elementining ko`rsatkichi chop etilsin.
- 40 Ikki bog`lamli bo`sh bo`lmagan "ro`yxat" ning birinchi elementi P_1 berilgan. "Ro`yxat" ning barcha toq qiymatdagi elementlari ikkilantirilsin(yangi element mavjudlaridan keyin qo`shiladi) va hosil bo`lgan "ro`yxat" ning oxirgi elementining ko`rsatkichi chop etilsin.
- 41 Bo`sh bo`lmagan ikki bog`lamli "ro`yxat" ning elementlaridan biri bo`lgan  $P_0$  ko`rsatkich berilgan. Berilgan element "ro`yxat"dan o`chirilsin hamda o`chirilgan elementdan oldingi va keyingi elementlar chop etilsin. Ko`rsatilgan element o`chirilgandan so`ng uning xotiradan egallagan o`rni bo`shatilsin.
- 42 2 tadan kam bo`lmagan elementi bor 2 bog`lamli bo`sh bo`lmagan "ro`yxat" ning 1-elementi  $P_1$  berilgan. "Ro`yxat" dan barcha toq nomerdagi elementlar o`chirilsin va hosil bo`lgan "ro`yxat" ning birinchi ko`rsatkichi chiqarilsin. Ko`rsatilgan elementlar o`chirilgandan so`ng ularning xotiradan egallab turgan joylari bo`shatilsin.
- 43 Bo`sh bo`lmagan 2 bog`lamli "ro`yxat" ning P_1 ko`rsatkichi berilgan. "Ro`yxat"dan barcha toq qiymatli elementlar o`chirilsin va hosil qilingan "ro`yxat"ning 1-elementining ko`rsatkichi chop etilsin. Ko`rsatilgan elementlar o`chirilgandan so`ng ularning xotiradan egallab turgan joylari bo`shatilsin.
- 44 Bo`sh bo`lmagan ikki bog`lamli "ro`yxat" ning elementlaridan biri bo`lgan  $P_0$  ko`rsatkich berilgan. Berilgan element "ro`yxat"ning oxiriga o`tkazilsin va hosil qilingan "ro`yxat"ning boshlang`ich va oxirgi elementlarining ko`rsatkichlari chop etilsin. Data maydoni o`zgartirilmasin, xotirani ajratish va bo`shatish amallaridan foydalanilmasin.
- 45 Bo`sh bo`lmagan ikki bog`lamli "ro`yxat" ning elementlaridan biri bo`lgan  $P_0$  ko`rsatkich berilgan. Berilgan element "ro`yxat"ning boshiga o`tkazilsin va hosil qilingan "ro`yxat"ning boshlang`ich va oxirgi elementlarining ko`rsatkichlari chop etilsin. Data maydoni o`zgartirilmasin, xotirani ajratish va bo`shatish amallaridan

- foydalanilmasin.
- 46 $K(K>0)$ soni va bo'sh bo'lmagan "ro'yxat"ning bir elementi P_0 berilgan. "Ro'yxat"da berilgan element K pozitsiya pastga o'tkazilsin. (agar berilgan elementdan quyida K tadan kam element bo'lsa element "ro'yxat" oxiriga o'tkazilsin.) Hosil qilingan "ro'yxat"ning 1- va oxirgi elementlarining ko'rsatkichlari chop etilsin. Data maydoni o'zgartirilmasin, xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 47 $K(K>0)$ soni va bo'sh bo'lmagan "ro'yxat"ning bir elementi P_0 berilgan. "Ro'yxat"da berilgan element K pozitsiya yuqoriga o'tkazilsin. (agar berilgan elementdan yuqorida K tadan kam element bo'lsa element "ro'yxat" boshiga o'tkazilsin.) Hosil qilingan "ro'yxat"ning 1- va oxirgi elementlarining ko'rsatkichlari chop etilsin. Data maydoni o'zgartirilmasin, xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 48 Ikki bog'lamli "ro'yxat" ning har xil 2 ta elementlarining ko'rsatkichlari P_x va P_y lar (P_x ko'rsatkichli element P_y ko'rsatkichli elementdan oldin turadi, ammo ular yonma-yon bo'lishi shart emas) berilgan. Bu 2 berilgan elementlarning o'rinlari almashtirilsin va yangi "ro'yxat"ning 1-elementi ko'rsatkichi chop etilsin. Data maydoni o'zgartirilmasin, xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 49 Bo'sh bo'lmagan 2 bog'lamli "ro'yxat" ning P_1 ko'rsatkichi berilgan. "Ro'yxat"ning barcha toq nomerdagi elementlarini "ro'yxat" oxiriga o'tkazish yo'li bilan u gruppalansin va hosil bo'lgan "ro'yxat"ning 1-elementi ko'rsatkichi chop etilsin. Data maydoni o'zgartirilmasin, xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 50 Bo'sh bo'lmagan 2 bog'lamli "ro'yxat" ning P_1 ko'rsatkichi berilgan. "Ro'yxat"ning barcha toq qiymatdagi elementlarini "ro'yxat" oxiriga o'tkazish yo'li bilan u gruppalansin va hosil bo'lgan "ro'yxat"ning 1-elementi ko'rsatkichi chop etilsin. Data maydoni o'zgartirilmasin, xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 51 Bo'sh bo'lmagan 2 bog'lamli 2 ta "ro'yxat"bir-biri bilan quyidagicha bog'langan: P_A va P_B lar birinchi "ro'yxat"ning boshlang'ich va oxirgi elementlarini, P_C esa ikkinchi "ro'yxat"dan bir elementni ko'rsatadi. Berilgan "ro'yxat"larning birinchisining barcha elementlari ikkinchi "ro'yxat"dagi berilgan elementdan oldin qo'shish yo'li bilan ikkala "ro'yxat" birlashtirilsin va hosil qilingan "ro'yxat"dagi birinchi va oxirgi elementlarning ko'rsatkichlari chop etilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
 - 52 Bo'sh bo'lmagan 2 bog'lamli 2 ta "ro'yxat"bir-biri bilan quyidagicha bog'langan: P_A va P_B lar birinchi "ro'yxat"ning boshlang'ich va oxirgi elementlarini, P_C esa ikkinchi "ro'yxat"dan

bir elementni ko'rsatadi. Berilgan "ro`yxat"larning birinchisining barcha elementlari ikkinchi "ro`yxat"dagi berilgan elementdan keyin qo'shish yo'li bilan ikkala "ro`yxat" birlashtirilsin va hosil qilingan "ro`yxat"dagi birinchi va oxirgi elementlarning ko'rsatkichlari chop etilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.

- 53 Ikki bog'lamli "ro`yxat" ning har xil 2 ta element ko'rsatkichlari  $P_x$  va  $P_y$  lar ( $P_x$  ko'rsatkichli element  $P_y$  ko'rsatkichli elementdan oldin turadi, ammo ular yonma-yon bo'lishi shart emas) berilgan. "Ro`yxat"dagi berilgan elementlar va ular orasidagi barcha elementlar yangi "ro`yxat"ga ko'chirilsin. Hosil qilingan "ro`yxat"ning 1-elementi ko'rsatkichi chop etilsin. Agar hosil qilingan "ro`yxat" bo'sh bo'lsa, natija NIL chiqarilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
- 54 Ikki bog'lamli "ro`yxat" ning har xil 2 ta elementlari ko'rsatkichlari  $P_x$  va  $P_y$  lar ( $P_x$  ko'rsatkichli element  $P_y$  ko'rsatkichli elementdan oldin turadi, ammo ular yonma-yon bo'lishi shart emas) berilgan. "Ro`yxat"dagi berilgan elementlar(o'zlari kirmaydi) orasidagi barcha elementlar yangi "ro`yxat"ga ko'chirilsin. Hosil qilingan yangi "ro`yxat"ning 1-elementining ko'rsatkichi chop etilsin. Agar hosil qilingan "ro`yxat" bo'sh bo'lsa, natija NIL chiqarilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
- 55 Bo'sh bo'lmagan 2 bog'lamli "ro`yxat"ning 1-elementi  $P_1$ -ko'rsatkich berilgan. Uning elementlarini siklik ravishda, oxirgi elementni NEXT maydoni yordamida 1-element bilan, 1-elementni Prev maydoni yordamida oxirgi element bilan bog'lab, berilgan "ro`yxat"dagi oxirgi element ko'rsatkichi chiqarilsin.
- 56 Juft sondagi elementlarni saqlaydigan bo'sh bo'lmagan "ro`yxat"ning boshlang'ich  $P_1$  va oxirgi  $P_2$  elementlari ko'rsatkichi berilgan. Berilgan "ro`yxat"dan foydalanib 2 ta yangi siklik "ro`yxat" hosil qilinsin:(55 ga qaralsin) birinchi "ro`yxat"da berilgan "ro`yxat"ning 1-yarmidagi elementlar, 2-"ro`yxat"da berilgan "ro`yxat"ning qolgan elementlari joylashsin. Berilgan "ro`yxat"dan shunday 2 ta P_A va P_B o'rta elementlar olinsin(P_A birinchi siklik "ro`yxat"da,  $P_B$  ikkinchi siklik "ro`yxat"da bo'lishi kerak). Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
- 57 K soni hamda bo'sh bo'lmagan 2 bog'lamli "ro`yxat"ning birinchi elementi  $P_1$  ko'rsatkich, oxirgi element  $P_2$  ko'rsatkich berilgan. "Ro`yxat"dagi elementlarni siklik ravishda K pozitsiya oldinga siljitish bajarilsin, (agar "ro`yxat" boshidan oxiriga yo'nalish mavjud bo'lsa) va olingan "ro`yxat" ning birinchi hamda oxirgi elementlari ko'rsatkichi chiqarilsin. Xotirani ajratish va bo'shatish amallaridan foydalanilmasin.
